



Tadqiqot **uz**

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих сағифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



No22
30 ноябрь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
3-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
22-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-3**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
22-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-3**

ТОШКЕНТ-2020



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 22-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 38 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

1. Мўминов Азизбек Зиёвиддинович, Эгамбердиева Маҳфуза Низомидиновна НАМАНГАН ВИЛОЯТИДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ.....	7
2. Отабек Мавлонов ЗАМОНАВИЙ ОРИЕНТАЛИЗМ ВА УНДАГИ ЙЎНАЛИШЛАР	10
3. Шарипов Ўқтам Усмонович ШУКРОНАГА САБАБ БЎЛГАН БУГУННИНГ ЭЪТИБОРИ!	12
4. Matniyazova Nafisa Maxmudovna OG'ZAKI BAYON VA KO'RGAZMALILIK METODLARINING TARIX FANIDA QO'LLANILISHI	14
5. Polvanova Nilufar Boltaboyevna TARIX O'QITISHNING TASHKILIY SHAKLLARI	16
6. Sattorova Shaxlo Turg'unbayevna XIX ASR O'RTALARIDA O'ZBEK XONLIKlarINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	18
7. To'yeva Dilafro'z Jamolovna TARIX DARSLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERNET MATERIALLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI.....	19
8. Cho'ttiboyeva Maftuna Maxmudaliyevna TARIX FANIDA O'QUVCHILAR TASAVVURINI KENGAYTIRISH	21
9. Razzoqov Abdusayim Abduxalimovich TARIX DARSLARIDA TARIXIY MANBALAR BILAN ISHLASH TAMOYILLARI.....	23
10. Boymurodov G'iyosjon Ikrom o'g'li TARIX O'QITISHNING METODIK MUAMMOLARI	25
11. Кимсанова Нозима Наримоновна ГОМЕР ДАВРИДА ЮНОНИСТОНДАГИ ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАР	26
12. Maraximov Boxodirjon Olimjonovich XRISTIANLIKNING O'RTA OSIYOGA KIRIB KELISHI	28
13. Mullayeva Moxira O'ZBEKİSTONDA URUG'CHILIK JAMOASINING BRONZA DAVRI	29
14. Yunusova Zaytuna TARIX DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI	32
15. Qodirova Sunbula Akbaraliyevna TARBİYA MASALALARI – OGАHIY QARASHLARIDA	34
16. Умаров Авазбек Аълам Ўғли ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА “ХАЛҚ ҚАБУЛХОНАЛАРИ” ФАОЛИЯТИ.....	36



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

НАМАНГАН ВИЛОЯТИДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

*Мўминов Азизбек Зиёвиддинович
Низомий номидаги ТДПУ
“Тарих ва уни ўқитиши методикаси”
кафедраси ўқитувчиси
azizbek.tuminov83@mail.ru
тел:94-662-78- 83*

*Эгамбердиева Маҳфуза Низомидиновна
Туракўргон туман 22-мактаб
тарих фани ўқитувчиси.
egamberdiyevatmafuz@gmail.com
тел:97-217-31-83*

Аннотация: Ушбу мақолада худудларда Наманган вилоятида экотуризмни ривожлантиришнинг имкониятлари ва улардан самарали фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятларнига тўхталиб ўтилган. Бу соҳада ҳам ўзига хос муаммолар ва қийинчиликлар бартараф қилиш бўйича таклифлар берилган.

Таянч сўзлар: экологик туризм, , экотуристик ресурс, экологик турлар, Наманган вилоятидаги мавжуд экотуристик туристик объектлар.

Мамлакатда иш ўринларини яратиш, худудларни жадал ривожлантириш, ахоли даромадлари ва турмуш даражасини ошириш каби энг муҳим ижтимоий-иктисодий вазифаларни ҳал қилиш учун кенг салоҳиятга эга бўлган туризм соҳасини ривожлантириш борасида изчил чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Айни пайтда мамлакат худудларида замонавий туризм инфратузилмасини яратиш чора-тадбирларига алоҳида эътибор қаратилган. Шу мақсадда худудларлар туризмни барча йўналишларини ривожлантириш мақсадида Андижон вилояти Хонобод шаҳрида дам олиш худудлари, Жиззах вилояти Фориш ва Арнасой туманларида Айдар-Арнасой кўуллари соҳилида бешта янги замонавий дам олиш худудлари ташкил этиш, Қашқадарё вилояти Шаҳрисабз ва Қарши шаҳарларида тўрт юлдузли меҳмонхоналар, Тошкент вилояти Бўстонлиқ тумани Чимён тоғ массивида меҳмонхона мажмуаси барпо этиш, шунингдек, Навоий вилоятида Тўдакўлнинг жанубий соҳилида ички туризм, ва Айдаркўл соҳилларида хорижлик туристлар учун пляжлар ташкил этиш кўзда тутилган [1]. Ўзбекистон Республикасининг экотуристик ҳолати, имконияти ва келажак истиқболларига қараб муайян бир районларга ажратиш мумкин. Экотуризмни ривожлантиришнинг худудий кўриниши ҳақида гап кетганда, мамлакатнинг Самарқанд, Қашқадарё, Сурхондарё, Жиззах, Наманган, Фарғона ва Тошкент вилоятлари табиат ёдгорликларига бой бўлган худудлар бўлиб, экологик туризмни ривожлантириш учун асосий марказлар ҳисобланади. Булардан кўриниб турибдик, Ўзбекистоннинг туризм салоҳияти, айниқса экотуризм ресурслари ушбу соҳани ривожлантириш учун катта имкониятдир. Экотуризм тараққиёти, яъни сайёҳлар оқимиини кенгайтириши иқтисодиёт тармоқлари, қурилиш, транспорт, савдо ва бошқаларни ривожланишига сабаб бўлади. Бу эса худудларда экотуризмни ривожлантириш масалаларига кенг эътибор қаратиш муҳим саналади. Республиканинг барча вилоятларида экотуризмни ташкил этиш ва ривожлантириш барча соҳаларининг иқтисодий ўсишига, ахолининг бир қисмини иш билан таъминлаш муаммосини ҳал этиш ҳамда экотуристик объектларини қайтадан қуриш, таъмиrlash



ва кенгайтириш имконини беради [2].

Наманган вилояти табиатининг бетакрорлиги, мафтункорлиги ва турли-туманлиги барчамизга маълум. Бу экотуристик районда экотуризмни ҳам ва туризмдаги барча турларни ҳам ривожлантиришнинг жуда катта салоҳиятлари ва имкониятлари бор. Наманган вилоятида туризм соҳасини ривожлантириш мақсадида, вилоят ҳокимининг 2016 йил 16 февралдаги "2016-2017 йилларда Наманган вилоятида туризм соҳасини ривожлантириш дастури тўғрисида"ги 66-сонли қарори қабул қилиниб [3], вилоятга келадиган сайёҳларга жаҳон андозаларига мос келадиган майший ва маданий шарт-шароитлар яратиш юзасидан бир қатор ижобий ишлар амалга оширилмоқда. Наманган вилоятига ташриф буюраётган сайёҳлар асосан маҳаллий ҳисобланиб, Андижон, Фарғона, Тошкент, Самарқанд ва бошқа вилоятлардан келади. Баъзан вилоятдаги археологик топилмаларни ўрганиш мақсадида чет эллик сайёҳлар ҳам ташриф буюришади. Чет эллик сайёҳларнинг ишончини оқлаш, хавфсизлигини кафолатлаш, сиёсий вазиятни тўғри талқин этиш бевосита ҳалқаро сайёҳликнинг ўсиши ва ривожланишида муҳим аҳамиятга эга. Бинобарин вилоят экотуризми ва экотуристик истиқболини белгилаш, келажакда сайёҳликни юксалтириш ва сайёҳлар оқимини ошириш турли хил шарт-шароит, ички ва ташқи вазиятга боғлиқ.

Президент Шавкат Мирзиёев вилоятга ташрифида давомида ҳар бир худуднинг хусусияти ва имкониятидан келиб чиқиб, янги корхоналар ташкил этиш, иш ўринлари яратишга оид топшириғига асосан комплекс ишлар амалга оширилиши, вилоятда тиббиёт туризми ҳамда экотуризмни ривожлантириш учун қўшимча имкониятлар очишини айтиб ўтди. Шунингдек, Шавкат Мирзиёев Чорток туманида барпо этилаётган "Чорток" санаторий-соғломлаштириш маркази билан танишиш орқали, Чортокда туризмни ривожлантириш ва экологик шаҳар барпо этиш бўйича топшириқлар берди [4]. Шу ерда Чорток шаҳрини экологик шаҳарга айлантиришда, Жаҳон банки билан ҳамкорликда ўрта шаҳарлар инфратузилмасини ривожлантириш лойиҳаси доирасида Чорток марказини қайта қуриш кераклиги таъкидланди.

Дарҳақиқат, вилоятда экотуризмни ташкил этиш ва ривожлантириш барча соҳаларининг иқтисодий ўсишига, аҳолининг бир қисмини иш билан таъминлаш муаммосини ҳал этиш ҳамда экотуристик обьектларини қайтадан қуриш, таъмирлаш ва кенгайтиришни тақозо этади. Ўзбекистонда туризм соҳасида ўз ечимини кутаётган қатор муаммолар мавжуд бўлиб, уларни босқичма-босқич ҳал этиш келажакда ушбу тармоқнинг макроиқтисодиётининг асосий қисмига айлантиришга хизмат қиласи. Наманган вилоятидаги экотуристик обьектлар ўзининг ландшафт хусусиятлари ва табиий шароитига кўра, қулайлиги билан ажralиб туради. Лекин баъзи бир экотуристик обьектларга олиб борадиган транспорт йўлларнинг нокулайги, экотуристик инфратузилманинг ривожланмаганлиги сайёҳлар оқимининг келишига акс таъсир кўрсатмоқда. Бундай муаммоларни ҳал қилиш учун шаҳарда фаолият кўрсатаётган туристик корхона ва фирмалар қизиқишини ошириш, шаҳар ҳокимлиги томонидан уларга имкониятлар яратиш мақсадга мувофиқ. Шунингдек, вилоятнинг қишлоқ жойларида яшайдиган аҳолидан ҳам сўровномалар ўтказиш, уларнинг хоҳиши ва истакларини ўрганиш муҳимдир.

Наманган шаҳридаги Мулла бозор Охун ва Мулла Қирғиз мадрасалари, Поп туманидаги Мунҷоқтепа тарихий ёдгорликларги, Чуст туманида Буонамозор, Тўрақўргон туманидаги Ахсикент тарихий ёдгорликлари ва Чорток туманидаги Қирқ қиз кўз ёши булоғи қадамжоларини сайёҳлик машрутларига киритиш. - Наманган вилоятидаги мавжуд экотуристик туристик обьектларини реклама қилиш, жумладан уларни ривожланган давлатпарида реклами ташкил этиш ва ҳоказо. Наманган вилоятида туризмни, хусусан экотуризмни юксалтириш ҳамда мавжуд муаммоларнинг ечими вазирликлар, вилоят ҳокимлиги ҳамда Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси ҳамкорлигига барча муаммоларнинг таркибий жиҳатларини қамраб олган ҳолда амалга ошириши лозим. Шунингдек, Наманган вилояти ҳокими Янгиқўргон туманида туризм ва экотуризмни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида қарор қабул қилинди [5]. Унга кўра, Нанай қишлоғи экотуризм марказига айланадиган бўлди. Янгиқўргон туманидаги Нанай қишлоғининг туризм салоҳиятини оширишга қаратилган ушбу қарор билан худуддаги қаровсиз турган кўплаб дам олиш масканлари негизида замонавий туризм обьектлари ташкил этилади ҳамда қишлоқ экотурзм марказига айлантирилади. Нанай қишлоғида ташкил этилган экотуризм марказида замонавий дам олиш жойлари -кемпинг, оромгоҳлар, меҳмон уйлар ташкил этиш



мақсадида маҳаллий ва хорижий инвесторлар жалб этилган. Бундай амалга оширилган ишлар натижасида вилоятда жуда кўп ёшлар иш билан таъминланади. Чуст туманининг ҳам экотуристик имкониятлари юқори бўлиб, хозирги кунда Чуст туманида экотуристик машрутлар 1. Чуст-Ғовасой. 2.Чуст-Буонамозор. 3. Мавлон Лутфий номли истироҳат боғи. 4. Тошкўргон-Машҳад йўналишлари орқали олиб орилмоқда [6].

Наманган вилоятида экотуризмни ҳудудий ривожлантириш – иқтисодий жихатдан жамиятга наф келтириши билан бирга, инсонларнинг узоқ умр кўриши, шунингдек, келгуси авлодларга озод ва обод, ҳур Ватан мерос бўлиб қолишини таъминлашда муҳим омилдир. Туризмнинг ривожланиши мамлакат иқтисодиёти, маданиятининг янада юксалишида, табиатининг дикқатга сазовор жойлари, тарихий ёдгорликлари ва миллий анъаналари ни асраб-авайлаш борасида миллатнинг янада ҳамжиҳатлигини қўллаб-куватлаш ҳамда иқтисодиётини янада тараққий эттиришда муҳим ўрин тутади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори// ПҚ-3217-сон 2017 йил 16 август. Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.07.2018 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 1 февралда “Мамлакатимизда туризм соҳасини янада ривожлантириш ва туризм хизматлари экспортини оширишни таъминлашга қаратилган аниқ чора-тадбирларни амалга ошириш”га бағишлаб ўтказилган йиғилиши.
3. Камолов Б. Чуст тумани ўзига хос экотуристик машрутлар сифатида // Экология хабарномаси, 7-сон, 2016. – Б.48.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Наманган вилоятига ташрифи// Халқ сўзи газетаси, 2019 йил 1 март. №42 (7272).
5. Наманган вилояти ҳокимининг “Янгиқўргон туманида туризм ва экотуризмни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. 2020 йил 10 июл. 359-сон.
6. Камолов Б. Чуст тумани ўзига хос экотуристик машрутлар сифатида // Экология хабарномаси, 7-сон, 2016. – Б.48.



ЗАМОНАВИЙ ОРИЕНТАЛИЗМ ВА УНДАГИ ЙЎНАЛИШЛАР

Отабек Мавлонов
Тошкент шаҳридаги
Турин политехника университети
Телефон: +998909489494
ottabeck@mail.ru

Аннотация: Мазкур мақолада Ориентализм пайдо бўлиши, ундаги баъзи йўналишлар ва уларнинг пайдо бўлиш сабаблари ҳақида маълумот берилган.

Калит сўзлар: ориентализм, йўналишлар, Фарб, Шарқ, Араб олами, ислом дини, мусулмонлар, мустамлакачилик.

Шубҳасизки, ҳолатларга кўра ёндашувлар турлича бўлишига қарамасдан ориентализм Ислом оламида бўлгани сингари замонавий Фарб оламида ҳам ўз аҳамияти ва таъсирига эгадир. Фарб оламида Осиё ёки Шарқ олами ҳақида китоб ёзмоқчи ёки бирор тадқиқот олиб бормоқчи бўлган ҳар қандай инсон, хоҳ у изланувчи-тадқиқотчи ёки олим бўлишидан қатъий назар кўп асрлар мобайнида илм-фан ва маданият соҳасидаги ютуқларнинг илдизи Шарққа бориб тақалишини инкор қила олмайди.

Ориентализм Араб ва ислом оламида бир-бирига қарама-қарши фикрларни қамраб олган бир масала сифатида намоён бўлиб, баъзилар бу каби ёндашувларни тўлиқлигича қўллаб қувватласа, бошқалари бутунлай инкор этади. Ориенталистларнинг Шарқ мамлакатларига оид қадимий қўллётзмалар, диний манбалар ва санъат асарлар каби илмий ва маданий меросларини олиб кетиб уларни ўрганиб ва шу кунларгача сақланиб қолишидаги уларнинг хизматларини мисол келтириб мазкур ҳаракатларни ижобий тарафдан қабул қилинишини ёқлаб чиқадилар. Бошқа бир гурух эса мазкур ҳолатларни ғарбликлар (асосан ориенталистлар) мустамлакачилик сиёсатини мустаҳкамлаш, тобе бўлган худудларни кенгайтириш ва уларни маданияти ва дунёқарашлари ўрганиш орқали имкони борича узокроқ муддат мустамлакачиликда тутиб туриш мақсадида қилингандигини таъкидлайдилар.

Бугунги кунда мавжуд бўлган мазкур икки йўналиш; бири тўлалигича Ориенталистларни қўллаб қувватласа, яни бир бошқаси қатъий ва таъбир жоиз бўлса нохолис тарзда биринчи гурухни қоралайдилар ва танқид қиласадилар. Уларнинг бу каби зиддиятлари илмий асосга ва ишончли манбага эга эмас. Бир тарафдан Ориентализм каби ижтимоий-тарихий тушунчалар доимо мукаммал ва хатодан холи бўлмаслиги табиий ҳолдир, бошқа тарафдан эса у доимо Ислом ва мусулмонларнинг заرارига хизмат қилмаган. Биринчи йўналишдагилар асосан Фарбнинг бугунги кундаги юксак цивилизацияси, илм-фан ва технология соҳасидаги ютуқларидан илҳомланган ва маҳлиё бўлганлар, улар Фарбдан келган барча илмий ғоя ва фикрлар (ўзларининг ҳолати ва нуктаи назарларидан келиб чиқкан ҳолда) мутлақо тўғри, илмий ва холис деб биладилар ва кўр-кўронга тақлид қиласадилар.

Уларни бутунлай инкор килувчи йўналишга тўхтадиган бўлсак, улар Фарбнинг илм-фан соҳасидаги юксак ютуқларини инкор қиласаларда, Фарб цивилизациясини бутунлай инкор қилиш билан бир қаторда уларнинг баъзи хатта-ҳаракатларини қоралайдилар. Уларнинг фикрига кўра Ориентализм каби тушунчаларнинг пайдо бўлишига сабаб бўлувчи ҳолатлар, унинг устувор максадларини миссионерлик фаолиятлари билан боғлаш, Ўрта асрлардан бери Ислом ва мусулмон оламига нисбатан мунтазам адоватда бўлиш ва бунинг натижасида Фарб олами ва Ўрта ва Яқин шарқ мусулмонлари ўртасида қуролли мажароларнинг келиб чиқиши, мусулмон мамлакатлар ва аҳолисига нисбатан ғарбликлар томононидан олиб борилаётган мустамлакачиликнинг замонавий қўринишлари, аҳолини таҳқирлашлар, уларнинг эътиқоди ва маданиятини пастга уриш ва шу каби ҳолатлар туғайли ғарбликларнинг ўзлари мустамлакага айлантирган ҳалқларга нисбатан такаббурона муносабатларини давом эттиририб келаётганларни билан изоҳлайдилар.

Шу ўринда Ориентализм бўйича жиддий илмий конфронтация мавжудлигини таъкидлаб ўтиш зарур бўлади. Мазкур ҳолатни атрофлича ўрганмай туриб кўзланган мақсадга эришиб бўлмайди. Уни жиддий, ҳар тарафлама, холис, диний ва илмий нуқтаи назардан Фарбга нисбатан мусулмон қарашларининг асл илдизларини тадқиқ этиш ва аниқлаш лозим. Замонавий Фарбда Исломнинг "хукмрон имиджи" (Ислом динининг кўпчилик томо-



нидан асл моҳиятини англанмаган ҳолда қабул қилинган имиджи - Ислом ва мусулмонларни терроризм ва турли хунрезликлар билан боғлаш ва айблаш, барча содир бўлаётган кўнгилсиз воқеаларнинг сабабчиси сифатида кўрсатиш) фақатгина вақтингчалик, ўткинчи ёки тасодифий бўлмай Ислом ва Фарб ўргасидаги маданий тафовутлар туфайли асрлар мобайнида шаклланган ёки шакллантириб келинган имиджидир.

Агар Фарб Шарқнинг меросини ўргангани каби Шарқ ҳам қачондир Фарбнинг илмий ва маданий меросини чукур ўрганиб, тадқиқ ва таҳлил этишга киришсагина уларнинг нима сабабдан Осиё ҳалқлари динлари ва қадриятларига нисбатан олиб борилаётган нотўғри ташвиқотларнинг асл мақсади ва пайдо бўлиш сабабларини англаш мумкин бўлади. Шундан кўриниб турибдики, башқа маданиятни ўрганишдан аввал ўз маданияти, тарихи ва илмий меросини ўрганиш ҳам ўта муҳим ҳисобланади ва кейин Фарбнинг Шарқ, хусусан мусулмонлар ҳақидаги фикрларини ўрганиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Said, Edward. "Orientalism," New York: Vintage Books, 1979
2. Tromans Nicholas, and others, The Lure of the East, British Orientalist Painting, 2008, Tate Publishing, ISBN 978-1-85437-733-3



ШУКРОНАГА САБАБ БЎЛГАН БУГУННИНГ ЭЪТИБОРИ!

Шарипов Ўқтам Усмонович
Самарқанд вилояти Нарпай тумани
ХТБга қарашили 1-умумтаълим мактаби
тарих фани ўқитувчиси.

Аннотация: Мақолада Президентимиз раҳбарлигига таълим тизимида амалга оширилаётган ислоҳатлар ва жамиятимизда ўқитувчиларнинг ўрнини муносиб белгилаш борасидаги амалга оширилаётган ишлар ёритилган.

Калит сўз: Саъй ҳаракат, Соҳибқирон, телевидение, телеканал, Президент мактаблари.

“Илмнинг фойдаси у қадар кўпдурки, таъриф қилғон бирла адo қилмак мумкин эмасдур. Илм бизларни жаҳолат қоронгулигидан кутқарур.”

A.Авлоний.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев бошчилигига мамлакатимизда халқ таълим тизимини янада ривожлантириш, жамиятда ўқитувчиларнинг мавқеини кўтариш, уларнинг ўрнини муносиб белгилаш борасидаги олиб бораётган саъй-ҳаракатлари биз ўқитувчи- педагогларга янги рух ва ўзгача куч-қувват бераётгани ҳеч кимга сир эмас.

Юртбошимиз бошчилигидаги таълимга, ўқитувчи, мураббий, устозларга эътибор берилаётганилиги давлатимизнинг янада барқарор ривожланиши ва юксак келажагига мустаҳкам асосдир.

Биз ўқитувчи, мураббий, устозлар бу эътиборнинг жавоби сифатида ўсиб келаётган ёш авлодга таълим беришда барча имконият ва салоҳиятимизни сафабар этишимиз, уларни буюк ишларни амалга оширишга қодир билимларни эгаллашига кўмакчи бўлишимиз шарт деб уйлайман. Бугунги кунда давлатимиз томонидан таълимга, хусусан халқ таълимига берилаётган эътибор барчамидан қайси касбда фаолият юритишимидан қатъий назар шукrona қилиб яшшимиз, ўз касбий фаолиятимизга вижданан ёндашишимиз кераклигини талаб этмоқда.

Инсоният ўз тараққиётининг дастлабки босқичида биргаликда меҳнат қилганлиги сабабли катта тажрибага эга бўлди. Меҳнат унумдорлигининг ўсиб бориши, дастлабки қабила сардорлари ва юрт оқсоқоллари қўлида моддий бойликларнинг тўпланишига олиб келди. Бу жараён кишилик жамиятида тўпланган бойликларни тўғри тақсимлаш, сарф қилиш, сақлаш, кўпайтиришни режали амалга ошира оладиган тажрибали ва зиёли шахсларга бўлган эҳтиёжни кучайтирди. Хар бир давлатнинг узоқни кўра оладиган ҳукмдорлари ўз салтанатлари ва келажак авлодларини баркамол сақлаб қолиш мақсадида мустаҳкам қонунларни жорий этишгани тарихдан маълум.

Шукурки, бундай ҳукмдорлар бизнинг ўтмиш тарихимизда кўпчиликни ташкил этади. Соҳибқирон буюк саркарда Амир Темур ўз давлатида илм-фаннынг ривожланишига алоҳида эътибор қаратиб, шахзода ва валиаҳдларни тарбиясига масъул лавозимларни жорий эттирган. Уз мамлакатининг барча ҳудудларида катта кутубхоналар ташкил эттириб, илм ва ижод аҳлига етарлича имконият яратиб берган. Темурийлар давридаги бу анъана буюк саркарданинг набираси Мирзо Улуғбек даврида энг юқори чўққига олиб чиқилди. Темурий шахзода Ҳусайн Бойқаро ҳам давлатни бошқаришда юксак билим эгаси, донишманд, сўз мулкининг сultonни Алишер Навоийни эъзозлаб саройда, ўз ёнида бўлишини хоҳлагани ҳам бежизга эмас.

Таълимга бўлган эътибор ватанимиз тарихида ҳеч қачон четда қолган эмас. Маҳмудхўжа Бехбудий, Абдулла Авлоний каби маърифатпарвар аждодларимиз ўз ватандошларини ҳаётий билимларга эга, зиёли шахслар бўлишларини истаганлар. Том маънода таълимни, айнан халқ таълимини ривожлантиришга, янгича ислоҳ қилишга ҳаракат қилганлар. Улар ўз халқини билимли қилиш ва таълимни ривожлантириш йўлида жонларини фидо қилишган.

Бугунги кунда давлатимизда амалга оширилаётган таълим соҳасидаги ислоҳотлар: Телевидение орқали "Ўзбекистон тарихи", "Маданият ва маърифат", "Маҳалла" телеканалларининг эфирга узатилиши, қурилаётган замонавий кутубхоналар, Президент макта-



бларининг очилиши таълимнинг ривожланишига, қолаверса, ёш авлоднинг таълим-тарбия олишига яратилган имкониятнинг яққол исботидир. Биз ўқитувчи, устоз-мураббийлар тарихий қадриятга айланган бу юксак эътибор асрлар оша давом этишига ишонамиз.

Энг муҳими таълимга, фидойи ўқитувчи, устоз-мураббийларига эътиборли, фуқароларига таълим олишга шарт-шароит яратиб берган ўз Юртбошиси ва раҳбарларига эга халқнинг фарзанди бўлганлигимга шукrona айтаман!

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. А.Софуний ва X.Кароматов,,Темур тузуклари". Тошкент.1991й.
2. А.Авлоний,,Туркий гулистон ёхуд ахлоқ". Тошкент.1992 й.



OG'ZAKI BAYON VA KO'RGAZMALILIK METODLARINING TARIX FANIDA QO'LLANILISHI

*Matniyazova Nafisa Maxmudovna
Xorazm viloyati Urganch tumani
XTB ijtimoiy fanlar metodisti
Tel: +998975108710*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix darslarida yuqori samaradorlikka erishish uchun qo'llaniladigan metodlar haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: og'zaki bayon, ko'r gazmalilik, jonli nutq, fikr, pedagogik texnologiya, metod, ko'r gazmali qurollar.

Tarix deganda uzoq o'tmish qiyofasi ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Aslida, tarix faqat vaqt tushunchasi emas. Kechagi, xatto, bugungi kunimiz katta tarixiy ma'no kasb etsa, ajab emas. Shunday bo'lyapti ham. Yosh avlodning har tomonlama yetuk bilimli, yuksak ma'naviyatli, barkamol shaxs bo'lib yetishishini ta'minlashda eng asosiy jihat hisoblangan pedagoglarning yuqori ilmiy, metodik bilimlari hamda amaliy ishslash bo'yicha yuksak mahoratini oshirib borish lozim. Dars jarayonida tatbiq etiladigan yangi pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning bilim darajalarini kengaytirishga, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirishga, ularning hozirjavoblik xususiyatini rivojlanirishga yordam beradi.

Tarix fanini o'qitishda o'quvchining jonli nutqi asosiy o'rni tutadi. O'quvchi ko'z o'ngida tarixiy voqealari, ijtimoiy hayotning yorqin manzarasi, obrazlari gavdalantiriladi. Og'zaki bayon ishontiruvchi kuchga ega. Jonli nutq o'quvchi ongiga tez etib boradi, tarixiy jarayonlarning qonuniyatlarini tushuntirishni osonlashtiradi, ma'lum xulosa chiqarishga ko'maklashadi, tarixiy materiallarni taxlil qilish va umumlashtirish namunasini ko'rsatib beradi, o'quvchining jonli nutqi puxta bilim va malaka manbai bo'lish bilan birga juda katta tarbiyalovchi kuchga ega. O'quvchi nutqidagi mantik, ishonarli bo'lishi o'quvchiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularni fikrlashga o'rgatadi.

O'quvchi dars jarayonida mavzuni og'zaki bayon qilib berish bilan birga har xil ko'r gazmali qurollardan, texnika vositalaridan, turli metodlar yordamida ham foydalanadi. Masalan: "Tushunchalar taxlili, tanlab ol, aqliy hujum, klaster" va boshqa metodlardan foydalanadi. Texnika vositaladaridan foydalanish ham yaxshi natija beradi. Og'zaki bayon qilishda matnlardan: qo'llanmalar, tarixiy asarlari, xujjalilar, vaqtli matbuotdan keng foydalanadi. Ularning mazmunini bayon qiladi, izohlaydi, tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi.

Jonli so'z ma'lum didaktik talablarga javob berishi kerak. O'quvchining dars davomidagi jarangli nutqi, o'quvchilar bilan savol - javobi, yakunlovchi nutqi, uyga vazifalar mazmuni, vazifani bajarish yo'llarini izohlash va tushuntirishda, o'quvchining jonli so'zi o'quvchilarni boshqarish, rahbarlik qilishida, tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo'lishda jonli so'zning o'rni beqiyosdir. O'quvchining jozibador nutqi o'quvchilarni faollashtiradi, ijtimoiy ishlarga faol qatnashishga chorlaydi, ularga zavq-shavq, ilhom beradi, o'z xulq-atvori va jamiyatdagi o'rni topishga ko'maklashadi.

O'quvchilar o'quvchi bayonini o'zlashtirishda ba'zan qiynaladilar. Ular matnlarni xoxlagan paytlarida kayta o'qishlari mumkin, lekin o'quvchi bayonini kayta eshtirmaydi, shuning uchun o'quvchilarni o'zlashtirishda o'quvchining nazorati va raxbarligi kata ahamiyatga ega.

Bayon qilinayotgan ma'lumotlarni o'quvchining yozib olishiga e'tibor berishi lozim. Bayonda o'quvchining uslubi, intontsiya va urg'uning kuchi, to'xtalish va jumlalarning ixcham, mantiqqa to'g'ri ifoda etilishi, nutqning ravon boy obrazli va ta'sirchan bo'lishi, xikmatli so'zlar, asarlardan namunalar keltirishda o'z o'rnni bilishi juda muhimdir, buning uchun ko'p o'qish, mashq kilish tinimsiz mehnat zarur.

O'quvchi bayonining muhim ikki shakli mavjud, bular tarixiy ma'lumotlarni bayon qilish ya'ni (monolog) va tarixiy ma'lumotlarni o'quvchilar bilan muhokama qilish ya'ni (dialog). Monolog qisqacha bayon, hikoya, ta'riflash, ma'lumot berish, tushuntirish, muhokama, ma'ruzasi kabi bo'ladi. Dialog esa ochiq yoki yopiq shakllarda bo'ladi, unda bir yoki bir necha o'quvchi ishtiroy etishi mumkin. Bu har ikkisi ham o'quvchi va o'quvchilarni faollikka chorlaydi.

Tarix fanini o'quvchilarga o'qitishda ko'r gazmalilik metodining o'rni ham beqiyosdir. Bu fanini



o`qitishda ko`rgazmali qurollarning ta`limiy va tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Avvalo, ko`rgazmali qurollar o`quvchilarning bilim olishida muhim manba hisoblanadi. Ko`rsatmalilik - deganda, avvalo o`qitish va o`rganishning ko`rgazmali usuli, o`qituvchi bayonining ko`rgazmali bo`lishi, uning o`quvchilardagi tayyor obrazlarga suyana bilishi, o`quv materialini bayon qilish vaqtida ko`rgazmali qurollardan foydalanishning va ko`rgazmali qurollar vositasida o`quvchilarning bilish faoliyatini faolashtrish hamda ularning o`rganilayotgan tarixiy faktlarini voqeа va hodisalarini aynan o`zini yoki ularning tasvirlarini ko`rish yordamida o`rganishlari tushuniladi.

Ko`rgazmalilik metodi - o`qituvchi bayonining aniq, obrazli bo`lishiga yordam beradi. O`quvchilarning mavzularni o`rganishga qiziqishni oshiradi va ularning bilish faoliyatini faollashtiradi, o`qituvchining bayonini va uning darsda qo`llagan boshqa usullari o`quvchilarning tushunib olishini osonlashtiradi, o`quvchilarning fikrlesh qobiliyatini oshiradi.

Har bir o`qituvchi tarix darslarini o`tish davomida ko`rgazmalilikka e'tibor berish bilan birgalikda innovatsion metodlardan ham o`z o`rida foydalanib, o`quvchilarini bilimlarini tekshirishmiz mumkin.

Bulardan tashqari yana ko`plab innovatsion metodlardan foydalanish mumkin. Zamonaviy ta`limning vazifalari bilimlar dunyosini ijodiy zabit etish, bilimini ma'lum qilishgina emas, balki o`zgartirish hamdir. Endigi vazifa mana shu bunyodkor tizimni mustahkamlash, uning zaiflashishiga yo`l qo`ymaslik. Shundagina oliv maqsadimizga erishamiz - buyuk xalq bo`lamiz, buyuk davlat barpo etib, o`zligimizni yana bir karra namoyon etamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. N. N. Azizzodjayeva. Pedagogik texnalogiyalar va pedagogik mahorat.
2. A.S.Sagdullayev, V. A. Kostetskiy. "Tarix qadimgi dunyo
3. www.ziyonet.uz



TARIX O'QITISHNING TASHKILIY SHAKLLARI

*Polyanova Nilufar Boltaboyevna
Xorazm viloyati Bog'ot tumani
1-son umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fanini o'qitishning tashkiliy shakllari, tarix fanini o'qitishning asosiy maqsad va vazifalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: tarix o'qitish, g'oya, maqsad, dars, ta'lism, tarbiya, vazifa.

Tarix kursi oldiga qo'yilgan ta'lism – tarbiya vazifalarini amalga oshirishning eng muhim shartlaridan biri har bir sinfda o'qitiladigan tarix kursining tutgan o'rni, uning ta'lism-tarbiyaviy vazifalari, har bir bo'lism va bo'limdagi mavzular, hatto har bir darsda o'tiladigan mavzuning juz'iy vazifalari oldindan aniq belgilab olingandan keyingina tarix o'qitishga kirishish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'rta ta'lism tizimida tarix o'qitishning maqsad va vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish bиринчи navbatda o'qituvchining har bir darsning ta'lism-tarbiya vazifalarini oldindan aniq va to'g'ri belgilab ola bilishiga bog'liqdir. Bu ham, o'z navbatida, o'qituvchining darsning ta'lism-tarbiya vazifalarini to'g'ri belgilash metodi va usullari haqidagi nazariy bilim va malakalarining darajasiga bog'liqdir.

O'rta ta'lism tizimida tarix kursi oldiga qo'yilgan ta'lism-tarbiya vazifalarini amalga oshirishning eng muhim shartlaridan biri har bir darsning ta'lism-tarbiya vazifalarini, shuningdek, uning boshqa darslar sistemasida tutgan o'rnni aniq belgilash va shu vazifalarni amalga oshirishdan iboratdir. Lekin har qanday tarbiyaviy vazifani ham, bir yoki bir necha darsda yoki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'tkaziladigan ayrim tadbirlar vositasida batamom mukammal hal qilib bo'lmaydi.

Har bir tarix darsida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tarix o'qitish oldiga qo'yilgan g'oyaviy va tarbiyaviy vazifalarning qandaydir bir elementi amalga oshiriladi. Shuning uchun ham o'qituvchi har bir tarix darsiga tayyorlanishda bu dars oldin o'tilgan darslarning davomi, bu darsda hal qilinishi kerak bo'lgan ta'lism-tarbiya vazifalari esa oldindi yoki kelgusi darslarda bajariladigan ta'lism va tarbiya vazifalarining ajralmas bir tarkibiy qismi ekanligini unutmasligi kerak.

Ilmiy dunyoqarashning asosini tashkil etuvchi muhim tushunchalarni o'quvchilar asta sekinlik bilan, bir qancha darslar davomida o'zlashtirib boradi, yangi tushunchalar keyingi dars materiallari asosida konkretlashib, yangi mazmun bilan boyiydi. Keyingi dars o'quvchilarning avvalgi darslarda olgan bilimi, orttirgan malakalarini kengaytiradi, ularda yangi tushunchalar hosil qiladi. O'quvchilar tarixiy protsesslarni keng va chuqurroq tushunadigan bo'lib boradi.

O'qituvchi har bir navbatdagi darsni rejalshtirar ekan, butun tarix kursining bir qismi bo'lgan bu darsda ta'lism va tarbiya vazifalarining qaysi bo'lagi yoki elementi qay darajada, qanday materiallar asosida va qaysi tomonini hal qilishi, o'quvchilarni qanday umumiyl xulosalarga olib kelishi, qanday tarixiy tushunchalarni aniqlashi yoki kengaytirishi, qanday yangi g'oyalar tushuntirilishi, ularni qay tarzda tanishtirishi kerakligini puxta o'ylab olishi zarur.

O'qituvchi butun tarix kursining ta'lism-tarbiya vazifalarini ayrim mavzularning ta'lism-tarbiya vazifalari bilan bog'lab rejalshtirmog'i kerak. Mavzular bo'yicha rejalshtirish mavzularini o'qitishning metodik sistemasini ishlab chiqishga yordam beradi. Mavzular bo'yicha rejalshtirganda har bir mavzuning butun tarix kursida tutgan o'rni va roli aniqlab olinadi. Har bir darsning ta'lism-tarbiya vazifalari o'z-o'zidan emas, balki o'qituvchining ongli va rejali ishi asosidagina muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. O'qituvchi darsga tayyorlanayotganda o'quv dasturining hajmi va mazmunini hisobga olib material tanlaydi, dastur va darslik asosida dars planini tuzadi, materialni joylashtiradi va uni bayon qilishda hujjat va boshqa ko'rsatmali qurollardan foydalanish metodlarini belgilaydi. Ammo, bu ishlar o'qituvchi darsning asosiy g'oyasini, undan ko'zlanayotgan ta'lism-tarbiya vazifalarini, darsda nimaga erishish, o'quvchilarda qanday tasavvur va tushuncha xosil qilish kerakligini aniq va to'g'ri hal qilgan taqdirdagina o'qituvchi ko'zlangan maqsadga erishishi mumkin. Darsning bosh g'oyasi va uning tarbiyaviy vazifalari to'g'ri va aniq belgilanmay o'tkazilgan dars programmada ko'rsatilgan faktlarni tasodifan, shunchaki sanab o'tishdan iborat bo'lib qoladi. Material tanlash



va uni izchillik bilan joylashtirish, darsda qo'llaniladigan butun didaktik usullar va metodik vositalarning hammasi darsning bosh g'oyasiga, uning ta'lim va tarbiya vazifalarini hal etish maqsadiga bo'yundirilishi kerak. Shuning uchun ham har bir darsning bosh g'oyasi va uning ta'lim-tarbiya vazifalarini aniqlash o'qituvchining darsga tayyorlanishida eng muxim bosqichni tashkil qiladi.

Tarix darslarining bosh g'oyasini, uning ta'lim-tarbiya vazifalarini aniq belgilash, ayniqsa, yosh, tajribasiz o'qituvchilar uchun qiyin ko'chadi. Ular ko'pincha darsning ta'limiy vazifalari bilan tarbiyaviy vazifalarini aniq ajrata olmay, ularning birini ikkinchisi bilan aralashtirib yuboradilar yoki konkret dars materialini, uning mazmunini xisobga olmay, tarbiyaviy vazifalarini umumiyl ravishda belgilash bilan cheklanib qo'ya qoladilar. Bunday o'qituvchilardan ko'pincha, - shu darsningizda qanday muhim tarbiyaviy vazifalarini hal qilishingiz kerak edi, - degan savolga, - o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashni ko'zda tutdim,— degan mazmundagi umumiyl javob olinadi.

VI—VIII sinflarda turli mamlakatlarda davlatlarning tashkil topishiga doir mavzular o'tiladi. Jamiyatning ob'ektiv rivojlanishi asosida davlatning tashkil topishidagi bu umumiyl qonuniyatlar hamma xalqlarga ham xosdir. Ammo davlatning tashkil topishidagi umumiyl qonuniyatlar bilan birga, har bir xalqning o'z sharoitlaridan kelib chiqadigan an'analarida o'ziga xos xususiyatlari ham bo'ladi. Shuning uchun ham qator mamlakatlarda davlatning tashkil topishi bilan bog'liq mavzularni o'tayotganda, davlatning tashkil topishidagi umumiyl qonuniyatlarnigina emas, balki har bir xalq tarixidagi o'ziga xos xususiyatlarni ham ko'rsatib berish talab etiladi. Tekshirib ko'rildi, mavzularning g'oyaviy mazmuni va ta'lim-tarbiya vazifalarini ochib berishga ojizlik qilgan bu talabalarning ko'pchiligi o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarixdan dars beruvchi o'qituvchilar ekanligi aniqlandi. Ayni vaqtida ularga tarix o'qitish metodikasining nazariy qismi ham o'tilgan edi.

Foydalanaligan adabiyotlar

1. Tarix o'qitish metodikasidan maruzlar matni.
2. Q.Usmonov. O'zbekiston tarixi.
3. www.ziyouz.com



XIX ASR O'RTALARIDA O'ZBEK XONLIKARINING IJTIMOY-IQTISODIY HAYOTI

*Sattorova Shaxlo Turg'unbayevna
Namangan viloyati Kosonsoy tumani
31-umumiy örta ta'lif maktabi
tarix fani o'qituvchisi
Tel: +998934950131*

Annotatsiya: ushbu maqolada XIX asr o'rtalarida o'zbek xonlikarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yer egaligi, soliq tizimi, to'lovlarning miqdori, sug'orish tizimi va tartiblari, amlok, mulk, vaqf yerlari.

XIX asrda O'rta Osiyo xonliklari agrar davlatlar edi. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yerga egalik tartiblari qandayligi, to'lanadigan soliq va to'lovlarning miqdori bilan belgilangan. Bu davrda yerlarning asosiy qismi, ayniqsa, ekin maydonlari xon, uning qarindosh va yaqinlari hamda bir qancha katta yer egalari qo'lida bo'lган. Aholining aksariyati katta yer egalariga tegishli ekin maydonlarida mehnat qilib, ijaraga olgan yerlari uchun hosilning bir qismini xiroj sifatida to'plaganlar.

Xiva xonligida ijaraga yer olgan dehqonlar yarimchi deb atalgan. Chunki ular olingan hosilning yarmini ijara haqi qilib to'lagan. Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida yerga egalik qilish shakllari deyarli bir xil edi. Ular uch turdag'i yer egaligidan iborat bo'lib, amlok-davlat yerlari, mulk-xususiy yerlar, shuningdek, masjid va madrasalar, diniy muassasalarga qarashli vaqf yerlari hisoblangan. Xonliklardagi yirik amaldorlar, harbiy sarkardalarga davlat tomonidan yerlar in'om etilgan. Vaqf yerlaridan olinadigan foydaning hisob-kitobi va taqsimoti bilan mutavalli shug'ullangan. Aholi soliq va to'lovlari mahsulot yoki pul ko'rinishida to'lagan. Bundan tashqari sug'orish inshootlari, yo'llar ko'priklar qurish va ularni ta'mirlash kabi ishlarni majburiyat tarzida bajarganlar. Mehnat majburiyati aholining ishlab berishi bo'lib, u beggar deb ham nomlangan. Bu davrda aholidan xiroj, zakot, suv, tegirmون, tuz, mulk, tomorqa, bog' solig'i va boshqa soliqlar yig'ilgan. Xiva xonligida asosiy soliq solg'ut deb atalgan. Harbiy majburiyatda har bir erkak kishi oziq-ovqati, quroq-aslahasi bilan birga qatnashishi kerak bo'lган. Chorvador aholi chorva mollaridan zakot solig'i, yaylov va suvdan foydalangani uchun ham soliqlar to'lagan. Shaharlar aholisi – hunarmand va savdogorlardan savdo puli, do'kon puli, tarozi puli kabi soliqlar kabi soliqlar olingan.

O'rta Osiyo hududi va uning iqlimi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga qulay bo'lган. Bu soha taraqqiyoti sug'orish ishlarining holati va suv ta'minotining qay darajada ekanligiga bog'liq edi. Shuning uchun ham sug'orish va suv ta'minoti sohasi O'rta Osiyoda muhim hamda davlat ahamiyati darajasiga ko'tarilgan. Qolaversa, xazinaga tushadigan asosiy daromadni dehqonlardan yig'iladigan soliqlar tashkil etgan.

Har bir hududda aholi va ma'muriyat vakillari sug'orish sohasiga mas'ul va javobgar bo'lган. Sug'orish ishlarini yuritish va nazorat qilish bilan bu sohaning mutaxassisleri – mirobler shug'ullanganlar. Ular sug'orish ishlari, suv inshootlarining qurilishi, ta'minoti, ta'mirlanishi, tozalanishi, suv taqsimotini yaxshi bilgan kishilar bo'lган. O'rta Osiyoda sug'orish tizimi qadimdan rivojlanib kelgan soha hisoblanadi. Mazkur ishlar, asosan, hashar yo'li bilan bajarilgan.

Aholisi, asosan, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan Farg'ona vodiysida sug'orish tizimiga katta e'tibor qaratilgan. Vodiylar hududida yirik sug'orish inshootlari – Shahrixonsoy, Andijonsoy, Marg'ilonsoy, Yangiariq, Ulug'vor, Qoradaryo kabilalar bo'lган. Suv chiqishi qiyin bo'lган joylarga maxsus qurilmalar – chig'irlar yordamida suv chiqarilgan. Amudaryo, Sirdaryo suvlari turli sun'iy sug'orish tizimlari – kanallar hamda uning bo'ylariga qurilgan to'g'onlar orqali ekin maydonlariga yetkazilgan. Bu hududda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, asosan, paxta va donli ekinlar tashkil qilgan.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Umumta'lif maktablari tarix fani darsliklari.
2. www.tarix.uz



TARIX DARSLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERNET MATERIALLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI

*To'yeva Dilafro'z Jamolovna
Buxoro viloyati Peshko'tumani 34-umumiy
o'rta ta'lif maktabi tarix fani o'qituvchisi
Tel: +998(91)4061347*

Annotatsiya: Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bugungi kunda bizning ta'lif tizimimiz uchun yangi metod hisoblangan ta'lifi imkoniyatlarini ochib berish, ushbu metoddan foydalanish ta'lif samaradorligini, ta'lifning hayotga, amaliyotga yaqinlashtirishini ko'rsatib berish va aynan, maktablarda tarix darslarini o'qitishda internetdan foydalanishning afzalligini ko'rsatib berishdan iborat.

Kalit so'zlar: Internet, interaktiv, individual, metod, texnologiya, vertul, bahs- munozara, motivatsiya

Tarix darslari o'quvchilarda Vatanimiz tarixiga hurmat uygo'tish, uni chuqur va xolisona o'rganish, har bir tarixiy davr haqida o'z tushunchasiga va fikriga ega bo'lish, tarixiy voqelikka o'z munosabatini erkin bildira olish, jahon mamlakatlari tarixi va ularning taraqqiyot bosqichlarini o'rganish va ularni baholay olish, tahlil qilish singari ko'nikmalarini shakllantiradi. Erkin fikrlay oladigan va o'z qarashlarini erkin ifodalay oladigan o'quvchilarni tarbiyalashda esa dars jarayonida yangi interaktiv metodlardan foydalanish qo'l keladi. Ilmiy ishning dolzarbligi shundaki unda aynan maktablarda tarix fanini o'qitishda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar, o'qitishning zamonaviy vositalarinig bugungi kunda qo'llanilishi tahlil qilinib, ta'lif tizimida yangi metod hisoblangan tadqiqotlar texnologiyasining ta'lifi imkoniyatlari, tadqiqotlar texnologiyasi bo'yicha didaktik jarayonni loyihalashtirish masalalari ochib berilgan.

Tarix darslarida internetdan foydalanishning afzalligi nimada? Bunda,

Birinchidan, bugungi kun ta'lif tizimidagi eng o'tkir muammolardan biri bo'lgan-motivatsiya muammosini yechishga yordam beradi.

Ana'naviy uslublar yordamida o'quvchini o'qishga jalb etish mushkul, nafaqat past o'zashtiruvchilar, balki iqtidorli o'quvchilar ham bunday darslarda zerikishadi.

Shuning uchun ham darslarda yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish jarayonlarida o'quvchilar oldiga hammani birdek jalb eta oladigan muammoli vaziyatlarni ilgari surish kerakki, bu muammoning yechimi oldindan ma'lum bo'lmasligi va uni hal qilish uchun har bir o'quvchidan izlanish va ijodiy faoliyat talab etsin.

Ikkinchidan, bu texnologiya natijasida individual-yo'naltirilgan o'qitish tamoyillari shakllanadi. Chunki ta'lif oluvchilar o'z qiziqishlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'zlariga yoqqan ish bilan mashgul bo'la olishadi.

Uchincidan, loyihalarni bajarish jarayonida o'quvchilar mustaqil izlanishga, manbalar izlash va ulardan foydalanishga, tahlil qilish, xulosa chiqarish, umumlashtirish va oldin egallagan bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llash singari ko'nikmalarga ega bo'ladilar. O'quv loyihalarni bajarish jarayonida ular o'z oldilariga maqsad qo'yish va bu maqsadga erishish yo'lida muammolarni echish, to'sqlardan o'tishga o'rganadilar.

Bugungi kun o'qituvchisi o'quvchilarga shunday ta'lif berishi kerakki, ular o'zgarayotgan zamonga yumshoq va tez moslashish, yangi muammolarni ilga'b, ularni yechish yo'llarini topa olish, qiyinchiliklar oldida esankirab qolmasliklari kerak. Ta'limga innovatsion yondoshish va ta'lif olishda amaliy-ijodiy ko'nikmalarini shakllantirish ushbu vazifaning yechimidir.

Maktablarda tarix darslarida internet resurslaridan foydalanish uslubiyotida yangi metod hisoblangan dars samaradorligini oshirishda, fanni to'liq o'zlashtirishda o'qituvchi va o'quvchi uchun muayyan imkoniyatlar yaratadi:

1. Internet resurslaridan tarix darslarida foydalanish bu o'quv jarayonini hayot bilan, amaliyot bilan bog'lashda juda qulay metoddir.
2. Ushbu texnologiya o'quvchilarda mustaqil ishlash, izlanuvchanlik, o'z oldiga maqsad qo'yish va maqsadli harakat qilish, muammolarni yechish, hamkorlikda faoliyat olib borish va boshqa foydali ko'nikmalarini shakllantiradi
3. Tarix darslarida bu texnologiyadan darsda va darsdan tashqari mustaqil ishlarni bajarishda



foydalanish yuqori samara beradi

4. O'quvchilarda turli axborot manbalari bilan ishlash, ularni tahlil qilish, ularga tanqidiy yondashish ko'nikmalarini shakllantiradi

5. O'quvchilarda ijodkorlik, yaratuvchanlikni tarbiyalaydi

6. Ushbu texnologiya o'quvchilarning kelajakdagi tadqiqotchilik ishlariga zamin yaratadi

7. Loyihalarning turi va bajarilish muddatiga ko'ra har -xilligi ularni doimiy qo'llash va tarixning har bir bo'limini o'quvchilar tomonidan mustaqil o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Tarix darslarida internet resurlaridan foydalanish juda keng doiradagi manbalar bilan ishlashni taqozo etadi. Barcha kerakli manbalarni Axborot-resurs markazi kutubxonasidan topib bo'lmaydi. Bunday holatlarda o'qituvchi va o'quvchilarga axborot-kommunikatsion texnologiyalar, xususan global internet tarmogi yordamga keladi.

Axborot kommunikativ texnologiyalari avval boshdan turli xil axborot mahsulotlarini yaratishga qaratilgan bo'lib, foydalanuvchi bu jarayonda o'zining ijodiy potensialini to'liq namoyon eta oladi.

Internet undan foydalanuvchilar uchun katta imkoniyatlar yaratadi. O'z tarkibiga elektron pochtani ham olgan butun dunyo tarmogi grafik va multimediyali tarkibli Web dan foydalanish imkoniyatini beradi.

Internetda yana turli xil qidiruv tarmoqlari, o'yinlar, yangiliklar, bahs-munozara olib borish uchun tarmoqlar mavjud. Virtual resurs markazi esa o'z tarkibida doimiy ravishda jahondagi yetakchi davlatlaridagi muzeylarning ekspozitsiya va ko'rgazmalarini namoyish etib boradi.

Uydan chiqmasdan, kutubxonalarga bormasdan Internetdan doimo turli yangi axborotlarni olish mumkin, chunki unda ulkan miqdorda pulli va bepul axborotlar va bilimlar to'plami jamlangan. Internet yordamida ko'pgina sirtqi kurslarga qatnashish, bahs-munozaralarda ishtirok etish va insoniyat faoliyatining hohlagan sohasi bo'yicha axborot olish mumkin.

Internet o'zida o'n millionlab nusxa kitoblarni saqlovchi kutubxonalar saqlaydigan matnlardan ham ko'p matnli axborotlarni saqlaydi. Unda millionlab sayt va milliardlagan sahifalar mavjud. Undan foydalanish nihoyatda qulay.Unda kutubxonalardagi an'anviy holda tuzilgan kataloglar kabi tuzilishga ega elektron kataloglar va avtomotik qidiruv sistemalari ham mavjud. Avtomotik qidiruv sistemalari o'zining tezkorligi va qidiruv ko'lamicining kattaligi bilan elektron kataloglardan afzal.

- Internet reusrlari va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bu o'quv jarayonini hayot bilan, amaliyot bilan bog'lashda juda qulay metoddir

- Ushbu texnologiya o'quvchilarda mustaqil ishlash, izlanuvchanlik, o'z oldiga maqsad qo'yish va maqsadli harakat qilish, muammolarni yechish , hamkorlikda faoliyat olib borish va boshqa foydali ko'nikmalarini shakllantiradi

Foydalanilgan adaboyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1998. – 31 .

2. Azizzxo'jaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. 2001

3. [http://scheglenko.school04.smoladmin.ru/Ispolzovanie informatsionnykh texnologii na urokakh istorii](http://scheglenko.school04.smoladmin.ru/Ispolzovanie%20informatsionnykh%20texnologii%20na%20urokakh%20istorii)



TARIX FANIDA O'QUVCHILAR TASAVVURINI KENGAYTIRISH

*Cho'ttiboyeva Maftuna Maxmudaliyevna
O'zbekiston tumani 21-maktab
tarix fani o'qituvchisi
e-mail:cho'ttiboyeva@inbox.uz*

Annotatsiya: maqolda tarix fanini o'qitishda o'quvchilar tasavvurini kengaytirish va bu jarayonni o'tkazish bo'yicha tavsiyalar haqida mulohazalar bayon qilingan, misollar keltirilgan

Kalit so'zlar: tarix, metodika, o'qituvchi, tasavvur, tarixiy hodisalar

Tarix o'qitish tarixiy dalillar haqida aniq obrazlarni va tasavvurlarni yaratishdan boshlanadi. Tarixiy tasavvur bilan tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog'langan, o'quvchilar hoidisalar, tarixiy jarayonlar haqida yetarli darajada to'liq va aniq tasavvurlar mavjud bo'lgandagina tushunchalar hosil bo'ladi. Tarix o'qitish jarayonida o'quvchilarning tasavvurlari chuqurlashib borishi natijasida, tushunchalarni shakllantirish uchun zamin yaratiladi. Tushunchalar o'z navbatida tasavvurlarni mazmunan boyitishga yordam beradi. Tasavvur va tushunchalarni hosil qilish metodik usullari ham ko'pchilik hollarda bir – biriga o'xshab ketadi. Tarix o'qitishda o'quvchilarning ko'z o'ngida o'tmishdagi ijtimoiy hayotning yaxshi manzaralarini shakllantirishda jonli va yorqin obrazlardan foydalanishning ahamiyati kattadir. Shunga erishish kerakki, bayon qilingan har bir tarixiy dalil, geografik nom va shaxs faoliyati obrazli bo'lishi lozim. Obrazlilik o'quvchilarini tarixdan oladigan bilimlarini ilmiy puxta bo'lishini zarur sharoitlaridan biri tarixiy voqealarni modernizatsiya qilishning oldini olish tarixga qiziqish uygotish hamda tarixiy dalillarni tahlil qilish va umumlashtirish uchun zarur bo'lgan shart – sharoitlarni yaratishning muhim vositasidir. Tarixiy dalillarni tahlil qilishga bir namuna keltiramiz:

Maktablarda tarix kurslarida o'quvchilar ko'z oldida eng qadimgi zamonlardan tortib to hozirgi kunlarga bo'lgan jamiyat taraqqiyoti izchillik bilan ochib beriladi. O'quvchilar aniq tarixiy dalil va hoidisalarni tekshirish va umumlashtirish asosida rivojlanishning qaror topishi to'g'risidagi ilmiy tushuncha bilan quronanadilar. «Jahon tarixi»ning qadimgi davrlarini va «O'zbekiston tarixi»ning qadimgi davrlarini o'qitish jarayonida ibtidoiy odamlar mehnatining takomillashib borishi, mehnat ular hayotini qanday o'zgarishlarga olib kelganligini o'quvchilar ongiga singdirib boriladi. Taraqqiyotning tarixiy jarayoni tushuntirilar ekan, ular tasavvurida ibtidoiy odamlar hayoti to'g'risida ko'rsatmali qurolsiz tushuncha hosil bo'lmaydi. Insoniyat taraqqiyotining ibtidoiy davrini faqat ushbu davr yodgorliklarini ko'rsatish yoki rangli rasmlardan foydalanish orqali tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada O'zbekiston tarixi muzeyi yoki boshqa shahar va tuman o'lkashunoslik muzeylariga ekskursiya uyushtirish, o'quvchilarning haqiqatni aniq va to'liq to'g'ri fikrlashlarini ta'minlaydi. Teshiktosh g'oridan, Oqtosh, Xo'jakent, Quyi Bo'zsuv manzilgohlaridan topilgan qadimgi tosh davriga oid tosh quronlari bilan tanishtiradi. Bu vaqtida yashagan odamlar ovchilik, meva yig'ish, yemishbob ildizlar topish bilan xayot kechirganlarini so'zlab «ov», «termachilik» rasmlarini ko'rsatiladi. Shundan so'ng o'quvchilar diqqati Teshiktosh va Oqtosh g'orlarining kesma suratlariga jalb qilinadi, so'ngra eramizdan avvalgi XII – VII ming yillarga oid o'rta asr materiallariga e'tibor qaratiladi. Bu paytda odam o'q – yoy yasashni bilib, birinchi uy hayvoni – itlarni o'ziga o'rgatadi.

Muzeyda akademik Y.G'.G'ulomov rahbarligida Buxoro viloyati hududida qazish ishlari olib borilishi natijasida Darbozakir tolit manzilgohida topilgan ko'p miqdordagi mehnat quronlari qo'yilgan. Qamish va yog'ochdan qurilgan bu manzilgoh 30 – 35 kishiga panoh bo'lgan. Shuningdek akademiklar: S.T.Tolstov, Ya.G'.G'ulomov ekspeditsiyalari qazish ishlari olib borilgan Jonbosqal'a manzilgohining chayla maketi berilgan. Arxeologlarning ma'lumotiga ko'ra bu chaylada 120 – 150 kishidan iborat jamoa yashagan. O'quvchilarga chaylaning maketi ko'rsatilib, uning o'rtasida muqaddas hisoblangan gulxan yonib turganini, atrofida ovqat pishiriladigan o'choqlar joylashganini so'zlab qazishmadan chiqqan parranda, baliq, hayvon suyaklari qoldiqlari, loydan yasalgan idish parchalari ko'rsatiladi. Keyingi yangi davr – Bronza asri. Insoniyat tarixida yangi davr ochilganligining, ya'ni patriarchat (otalik urug'i) davri hamda xo'jalikda, oilada, ijtimoiy munosabatlarda erkaklar hukmronligining o'rnatilganini ko'rsatuvchi materiallar, odamlarning mehnat quronlari, tosh boltalari, og'ir dastalari, bronza chaqmoqlari



bilan tanishtiradilar. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o‘quvchilar tarix muzeyida o‘z ko‘zlar bilan ko‘rgan qadimgi odamlar hayoti va ularning ish qurollarini bir umrga eslarida saqlab qoladilar. Muzeydan qaytgach o‘qituvchi, o‘quvchilarga «mehnat qurollarining takomillashuvida inson hayotining o‘zgarib borishi» yoki «Mehnat insonni yaratadi», «Kishilar o‘rtasida tengsizlik qanday vujudga keldi?», «Odamlar hayotining takomillashuvida tabiatning o‘rni» kabi mavzularda referat yozib kelishlarini topshiradi. Tarixiy tasavvurlarni shakllantirishda tarixiy hodisalar obrazlarini o‘quvchilar faol suratda idrok etishga qaratilgan usullardan foydalaniladi. O‘qituvchi hikoyasining mazmunan ko‘rgazmali va obrazli bo‘lishi darslik matnidagi tarixiy hujjatlardagi voqeя va tasviriy rasmlar, badiiy adabiyot asarlari o‘quvchilarda tarixiy tasavvurlarni shakllantirishning asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Lafasov 7-sinf Jahon tarixi darsligi.-T.: Cho‘lpon. 2005
2. M.Lafasov. 9-sinf Jahon tarixi o‘quv qo‘llanmasi.-T.: A.Qodiriy nomidagi merosi.-T.: 1999
3. U.Jo‘rayev. 7-sinf Jahon tarixidan o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.-T.: 2000
4. N. Norqulov, U.Jo‘rayev . 8-sinf O‘zbekiston tarixi. Sharq. T. 2000
5. J.Raximov. 9-sinf O‘zbekiston tarixi. Toshkent. 2000



TARIX DARSLARIDA TARIXIY MANBALAR BILAN ISHLASH TAMOYILLARI

Razzoqov Abdusayim Abduxalimovich
Samarqand viloyati Narpay tumani
4-umumta'lim maktabi direktori
razzoqovabdusayim@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quvchilarga tarix darslarida mamlakatimiz va xalqimiz davlatchiligi tarixi bilan tanishtirishning samarali usullarida haqida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlari: tarix, tarixiy manbalar, tarixiy jarayonlar, Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi"

Bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha sohalarini tom ma'noda isloh qilish va demokratlashtirish, ta'lim tizimini tubdan yangilash, jamiyatimizning strategik maqsadlarini amalga oshrish masalasiga muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Zero, ilm – inson tafakkuriga bilim, ruhiy quvvat, tetiklik, g'urur, tizimlilik baxsh etadi. Bu esa pirovard natijada inson ongida ilmiy dunyoqarashning shakllanishiga zamin yaratib, ularda dastlabki ilmiy tushunchalar hamda ilmiy faoliyatni shakllanishiga turki beradi.

Shu ma'noda Tarix fanini o'qitishda *ko'rish, eshitish, bilish, anglash, tanlash va ilmga ijodiy yondashish* usullari muhim ahamiyatga ega. Xususan, mamlakatimiz va xalqimiz davlatchiligi tarixi, tarixiy jarayonlar, ijtimoiy hayoti, taraqqiyoti, dunyoda sodir bo'layotgan barcha jadal o'zgarishlar, shu bilan birga xalqning milliy-ma'naviy va umuminsoniy qadriyatları, ko'z o'ngimizda yuz bergen va yuz berayotgan voqeа-hodisalar tarix fani va uning yordamchi sohalari uchun asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Bunda fanni o'rganishda quyidagi ikki yo'nalishni e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, tarix fanini o'qitishda ma'lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy hamda g'oyaviy asoslarga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

– *tarixga xalqning milliy va umuminsoniy qadriyati hamda muqaddas ma'naviy merosi sifatida qarash;*

– *tarixiy moddiy va ma'naviy merosga chuqur hurmatda bo'lish va unga umuminsoniy qadriyat sifatida yondashish;*

– *tarix jamiyat va tabiat hamda insoniyat taraqqiyotining ma'lum dialektik hamda sinergetik qonuniyatlari asosida rivojlanishini to'g'ri anglash;*

– *tarix insonlar ongida tarixiy xotira tuyg'usini shakllantiruvchi moddiy va ma'naviy merosni vujudga keltiruvchi muhim manba, xalqni g'oyaviy-maskuraviy jihatdan jipslashtiruvchi tamoyil ekanligini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan*, tarix fanini o'rganishda ma'lum nazariy-metodologik tamoyillarga tayanish hamda etnografiya, arxeologiya, antropologiya fanlarida qabul qilingan moddiy va yozma ma'lumotlarga tayangan holda ish yuritish metodi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy manbalar o'quvchilarni vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixon ruhida tarbiyalaydi, ularda shaxsiy bilim hamda ko'nikmalarni, tashabbus va erkin ijod qilish sifatlarini shakllantiradi. Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga Vatanimiz tarixini o'rganishda yozma manbalarning o'rni katta ekanligini tushuntirgan holda xalqimizning ulkan moddiy va ma'naviy merosining bir qismi kutubxonalar, arxivlarda saqlanib kelayotganligiga urg'u berar ekan, o'quvchilarga manbalarning turlari, shakllari xususida ma'lumotlar beradi. Yozma manbalar deganda, asosan tarixiy qimmatga, noyob xususiyatga, ajdodlardan avlodlarga meros tarzda o'tib kelgan barcha yozma meros namunalari, hujjalari, kitoblar (asarlar) va boshqalar tushuniladi. Eng asosiysi, ular tarixiy mazmunga, qimmatga ega bo'lishi, bugungi kun nuqtayi nazaridan noyob hisoblanishi lozim. Xalqimiz tarixini o'rganishda yozma manbalar, qo'lyozmalar, ayniqsa, sharq manbashunosligi muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda darsda yozma ma'lumotlar bilan ishlashning nazariy-metodologik usullari xususida tushunchalar berish mumkin. Masalan, **Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi"** asarini olaylik. Ushbu asar XV asr birinchi yarmida yozilgan bo'lib, u muhim tarixiy-etnografik manba sifatida, o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat o'zbek xalqi tarixi, balki Markaziy Osiyo xalqlari, etnik tarixi, turmush tarzi xususida ma'lumot beradi. Ushbu asarda XIII-XIV asrlarda Movarounnahrda sodir bo'lgan muhim tarixiy jarayonlar bayon etilgan. Asarda mo'g'ullar



hukmronligi davrida, xususan, Chig‘atoy va uning avlodlariga meros sifatida Movarounnahrda berilgan hududlar, u yerdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, mo‘g‘ullar imperyasining to‘rt ulusga bo‘linish sabablari, Chig‘atoy ulusi va uning tarkibidagi hududlar va qo‘sni mintaqalar xalqlari o‘rtasidagi etnomadaniy jarayonlar bayon etilgan.

Manbalar asosida shakllantirilgan ko’nikmalar quyidagi natijalarni beradi:

– manbalar o‘qituvchi va o‘quvchilarни mustaqil fikrlashga va ijod qilishga undaydi, tarixiy ashylardan foydalanish va ularni asrab-avaylashga chaqiradi;

– manbalar yaqin va uzoq o‘tmish haqida tushunchalar berish bilan birga o‘quvchilarning dunyoqarashi, tafakkurini, mustaqil ijod qobiliyatlarini namoyon etishlarini va shu asosda yakuniy xulosalar chiqarishga undaydi.

– tarixiy manbalar o‘quvchilarни vatanparvarlik, milliy g‘urur va iftixon ruhida tarbiyalaydi, ularda shaxsiy bilim hamda ko‘nikmalarni, tashabbus va erkin ijod qilish sifatlarini shakllantiradi.

Umuman, o‘quvchilar ilmiy manbalarni o‘rganish jarayonida o‘tmishda xalqimizning, ya’ni ajdodlarimizning hayoti, turmush tarzi, ularning ajnabiy bosqinchilarga qarshi mustaqillik va ozodlik uchun kurashlari, mardligi va jasorati haqida kerakli ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Xalq qahramonlari, davlat arboblari, olimu fuzalolar faoliyatlarini o‘rganadilar. darsda va darsdan tashqari vaqtarda Vatan tarixi turkumiga kiruvchi soha va yo‘nalishlarni o‘qitishda erishilgan tarixiy tajribalarni ilmiy o‘rganish metodlarini ishlab chiqish va uni ommalashtirishga erishadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Oblomurodov N., Hazratqulov A., Tolipov F. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. (o‘quv qo‘llanma) – T., 2011.
2. Oblomurodov N., Shodmonqulov I. O‘zbekiston tarixi. (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – T., 2009.
3. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – T.: Sharq, 2001



TARIX O'QITISHNING METODIK MUAMMOLARI

*Boymurodov G'iyoşjon Ikrom o'g'li,
Navoiy viloyati Xatirchi tumani
4-umumta'lim maktab tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada tarix o'qitishning metodik muammolari haqida fikr yuritilgan
Kalit so'z: tarix, metodika, AKT

Tarixga yangiliklar kiritilsada ayrim sohalari nazarimizdan chetga qolmoqda. Hozirgi kunda ham tarix sohasini rivojlantirishda metodik muammolardan holi bo'lganicha yo'q.

Metodika so'zi yunon tilidan olingan bo'lib uslub degan ma'noni bildiradi. Yurtboshimiz tomonidan belgilab berilgan muhim vazifa - tarixiy bilimlarning samaradorligi va sifatini oshirishning muhim sharti va vositalaridan biri bo'lgan bu ishlar tarix o'qitish metodlari sistemasini va metodik usullarini ham ilmiy asosda ishlab chiqish va amalda ulardan muvaffaqiyatli foydalanish imkoniyatini beradi.

Hozirgi davrda barcha jabhani uz ichiga olib borayotgan kompyuter tizimi dan ham tarix darslarida foydalanish ijobjiy natijalarga olib keladi. Masalan, o'quvchilarining olgan bilimlarini aniq baholashda kompyuterdan foydalanish mumkin. Hozirda asosiy e'tibor zamonaviy informatsion texnologiyalarga asoslangan o'quv jarayoni modelini yaratish, fanlardan giper va multimedya texnologiyalariga asoslangan elektron darslik, o'quv qo'llanmalarini yaratish muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shularni hisobga olgan holda zamonaviy ta'limga tizimida o'quv jarayoni va unda o'qituvchining ish faoliyatini rejalashtirishga doir ilmiy ishlarni keng doirada olib borish kerak deb hisoblaymiz qaysiki, bu o'z samarasini ko'rsatsa.

Hozirgi kunda tarix fanini o'qitishda yangi pedagogic texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. Bular multemidya, taqdimotlar (slaydlar) ko'rsatish, roliklarni ekrannda namoyish qilish, xaritalarni electron ko'rinishda tayyorlash kabilalar kiradi.

Kinofilmlar, ayniqsa, badiiy filmlar o'quvchilarga ijobjiy ta'sir ko'rsatish, estetik va axloqiy tarbiya berish vositasi hamdir. Kinofilmlar bilim olish vaqtini iqtisod qilishga yordam beradi. O'quvchilar oddiy sharoitda o'qituvchining bayonidan muzey va har xil tarixiy joylarga ekskursiyalarda bo'lib soatlar sarf qilib oladigan bilimlarni 10-15 daqiqali filmni ko'rib ham olishlari mumkin. O'quv filmlarining emotsiyal, estetik ta'siri ham boshqa ko'rsatmali qurollarga nisbatan shubhasiz kuchlidir. Teleko'rsatuvga yirik olimlarni, yozuvchilar, tajribali o'qituvchilar, yuristlarni hamda tarixiy voqealarning ishtirokchilarini jalb etish o'quv materialini o'rganishning dolzarbliji va mazmundorligini oshiradi.

Shuni ta'kidlash joizki, kompyuterdan foydalanib dars o'tish katta samara beradi. Ayniqsa, slaydlarni ko'rsatish, filmlarni ekrannda namoyish qilish, xaritalarni electron ko'rinishda tayyorlash, multimedya texnologiyalariga asoslangan elektron darslik, o'quv qo'llanmalarini yaratish o'z natijasini ko'rsatadi. Xonada juda katta yozuv taxtasi bo'lishi kerakki, uning bir qismi tasvir bilan band bo'lsa, bir qismi tasvirlarga oid materiallarni ko'rsatish yoki boshqa maqsadlar uchun bo'sh bo'lsin.



ГОМЕР ДАВРИДА ЮНОНИСТОНДАГИ ИЖТИМОИЙ МУНОСАБАТЛАР

*Кимсанова Нозима Наримоновна
Маргилон шахар 19-мактаб
тарих фан укитувчиси
e-mail: nozima@inbox.uz*

Аннотация: маколада Гомер даврида Юнонистондаги ижтимоий муносабатлар, Басилемларнинг катта ва ҳашаматли уйи, қишлоқ жамоалари хусусида маълумотлар берилган

Калит сузлар: тарих фани, кадимги дунё тарихи, ижтимоий муносабатлар

Гомер даврида, яъни мил. авв XI – IX асрларда, Юнонистондаги ижтимоий муносабатлар тарихини ёритишида Гомернинг достонларига мурожаат қилиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Биз кўриб чиқаётган тарихий даврда дорийларнинг Юнонистонга бостириб келиши билан Юнонистонда шу давргача шаклланган Крит – Микен маданияти ва давлатчалари яксон этилади. Синфий жамият ва давлатлар барбод бўлиб, ижтимоий жиҳатдан патриархал – уруғчилик тартибларига қайтилади. Аммо, бу ҳол узоққа чўзилмайди. Аста – секинлик билан уруғ – қабила етакчиларининг (басилемлар) ҳокимияти кучая боради. Басилемлар уйи катта ва ҳашаматли қилиб қурила бошлайди. Чунки улар қишлоқ жамоаларини бошқарар эдилар. Уларнинг уйида омборлар мавжуд бўлиб, у ерда нафақат дон ва дон маҳсулотлари балки, олтин ва қимматбаҳо буюмлар ҳам сақлаганлар. Басилемлар уйида уларнинг оила аъзолари ва бутун боши қариндош – урғлари яшаганлар. Аммо, унинг қариндошларининг факат патриархал оила аъзоари басилем уйида яшашга ҳақли саналганлар. Биз кўриб чиқаётган тарихий даврда басилем даражаси авлоддан авлодга ўтадиган ворисий мансаб бўлмаган. Басилемни қишлоқ жамоаси, уруғдошлар йифинида ёши катта ва эътиборли эркаклардан сайлаб қўйилган. Басилем оиласи ва қишлоқ жамоаси билан мил.авв XI – IX асрларда мунтазам ва иноқ муносабатлар мавжуд бўлган. Шунинг учун Гомер даврида ва унинг достонларида айникса, Одиссей достонида куйланган қишлоқ ёки шаар, аҳоли манзилгоҳини биз уруғдошларнинг қўшни жамоаси деб атасак тўғри бўлар эди 22. Мил.авв XI – IX асрларда юнонистондаги ижтимоий муносабатлар тарихини ўрганар эканмиз, шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, басилемлар бир қадар имтиёзли тоифаларга айлана бошлаган эдилар. Гомер достонларидағи маълумолар ҳам бундан да-лолат беради. Достонларда айрим басилемларнинг катта бойликларнинг эгаси эканлиги, маълум бир ҳокимиятнинг айнан уларга тегишли эканлиги, унинг учун улар жамоа колективидан ажralиб туриши хусусидаги маълумотлар ҳам мавжуд. Бундан ташқари Гомер достонларида уйидан, еридан ажralиб қолган айрим уруғдошларнинг аянчли тақдирлари ҳам эслатилади. Улар жамоада яшаб қолишлиари ва уруғдошлари орасида юришлари учун басилемларга хизмат қилишлари ҳам эслатилади, бу биз кўриб чиқаётган мил.авв XI – IX асрларда патриархал уруғчилик анъаналарининг емирилиши ва уй қулчилигининг вужудга келиш жараёнларининг акс этганидан далолат беради. Гомер асарларида кам ерли ва ерсиз бўлсада, уруғ жамоасининг аъзоси Фет деб номланган бўлиб, улар уруғ – қабила асосини ташкил этар эди. Бир неча фетлар, яъни уруғлар бирлашиб фратрияни ташкил этар эди. Бу уруғдошлар жамоаси деган маънени билдирган. Фратриядан катта бўлган ташкилот фил деб аталиб, у қабила маъносини англатган. Уруғ ва фил аъзолари бир отадан келиб чиқкан деб ҳисобланган. Гомер достонларида фил бошлиқлари филобасилем деб келтирилиб, уруғ бошлиқлари уларга ўзларининг бир қисм ҳокимиятларини беришга мажбур бўлганлар. Гомер даврининг хусусияти шундан иборатки, мулкий табақаланиш кучайиб бораётган ва уруғчиликнинг емирилиб бораётган, басилемлар билан ҳокимиятга интилаётган кўп сонли зодагонлар, шунингдек қуллар ва эркин кишилар табақалари шакланаётган давр деб баҳолаш мумкин. Шу билан бир қаторда ижтимоий жиҳатдан қарам ва чет қабила ёки ўлқадан келган кишилар жамоаси ҳам бўлиб, уларни метанаастлар атамаси билан келтиради.

Метанаастлар уруғ аъзоси бўлмаганлиги учун уларни урғ – қабила ўз имоясига олмаган. Улар қуллик ҳолатига тушиб қолиши ни олди олинмаган эди. Гомер асарларида қуллар ва айникса чўрилар кўп маротаба тилга олинган. бўлаётган давр бўлиб ҳисобланади.



Гомер даврининг охирида Юнонистонда ижтимоий муносабатлар кескинлашиш жараёни бошланади ва полислар, давлатларнинг вужудга келиш даври бошланган эди. Гомер асарларида айрим вилоятларнинг ҳарбий иттифоққа бирлашганлиг ҳақидаги маълумотлар ҳам мавжуд. Жумладан Гомер достонларида Арголида, Беотия, Фессалия каби Юнонистон вилоятлари басилейлари ўз вилоятларининг ҳарбий конфедератив иттифоқларини тузганлигиклари эслатилиб ўтилади. Вужудга келаётган давлатларда ҳокимият басилейлар қўлига ўтилишини кузатар эканмиз, улардан энди басилейлик амали отадан – ўғилга ўтувчи меросий жараёнлар содир бўлганлигини кўриш мумкин. Аммо, қишлоқ жамоасининг асосий қисми ҳали ҳам ўзларининг шахсий эркинликларини саклаб қола билганлар.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Жумаев А. Ш. Қадимги дунё тарихи. Ўқув услубий қўлланма Бухоро 2006.
2. Орзиев М., Ризаев Б. Ҳайитов Ж. Қадимги дунё тарихи фанидан атамалар қисқача изоҳли луғати. – Бухоро —Дурдана! 2014.
3. Ражабав Р. Қадимги дунё тарихи. (шарқ Юнонистон, Рим)– Т.: фан ва технология. 2009.



XRISTIANLIKNING O'RTA OSIYOGA KIRIB KELISHI

*Maraximov Boxodirjon Olimjonovich
Marg'ilon shahar 2-DIUM o'qituvchisi
Tel:+998(90)6333385*

Annotatsiya: Maqolada O'rta Osiyoga xristianlikni kirib kelishi, undagi markazlari, yodgorliklar va tarixiy manbalarda yozib qoldirilgan ma'lumotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: missionerlik, suryoniy tili, nestorian, Injil, nasroniy, Bifleem,

Suriya(suryoniy)liklar olib kirgan xristianlik O'rta Osiyoga Fors diyori orqali kirib keldi. Suriya(suryoniy)liklar tili Fors va O'rta Osiyolik xristianlarda ibodat tili bo'lib qoldi. Xristianlikning qabul qilinishi Rim imperatorlarini xristianlarni Fors diyoriga quvg'in qilishlariga va ba'zi xristianlarni esa Sharqqa ko'chirishlariga turtki berdi. Milodiy 334-yil Marvda xristian yepiskopligi paydo bo'lishi bilan esda qoldi. V asrda Fors xristianlarning nestorianlikning qabul qilishi va Rim bilan Konstantinopolning ajralishi ular va Fors podshohlari o'rtasidagi kelishuvga zamin yaratdi. O'sha davrdan beri xristianlikning O'rta Osiyoda ommalashuvi nestorianlarning asosiy ishi bo'lib qoldi. Hech bo'limganda bu ishda faqat Iakovitharning bir qancha jamoalar va provaslav suriyaliklar (melkitlar) oz bosqichlarda nestorianlikni qabul qildilar. 410-671 yillardagi nestorianlarning kengashlarida Marv, Hirot va boshqa joylarning mitropolitlari va yepikoplari ishtrok etdilar. Turkiy xalqlarda xristianlikning ommaviylashuvi VII asrda boshlandi. Nestorian tashkilotlari O'rta Osiyoda islom hukmronligi davrida ham bo'lgan.

X asrda hozirgi O'zbekiston hududida ikkita xristian qishlog'i mavjud edi. Bularning birinchisi - Vazkerd (Samarqand janubidagi tog'lar orasida joylashgan), ikkinchisi – Vinkerd (Chirchiq daryosining Sirdaryoga quyilishi yaqinida).

1007-yilda Mo'g'ulistonidagi qoraxitoylar xristianlikni qabul qildilar. XII asrda Qashqarda mitropoliya ta'sis etildi. Yettisuvning shimoliy qismida Nestorian qishloqlari XIII asrda mavjud edi. XIII asr boshlarida ko'chmanchi naymanlar (Mo'g'ulistonning g'arbiy qismidagilar) va o'troq uyg'urlar orasida ko'p xristianlar bo'lganlar. Uzoq Sharqdagi xristianlikning ommaviylashuvi haqidagi mish-mishlar Yevropada Sharqdan hujum bo'lishi haqidagi qarashlarni uyg'otdi. Shu sababli XII-XIII asrlarda musulmon dunyosi ular bilan to'qnashdi. Xristian qoraxitoylar, nayman va uyg'urlar Chingizxon va uning Xitoy, O'rta Osiyo va Fors diyoridagi vorislarining saroylari huzurida o'z ta'sir kuchlariga ega edilar. Sayohatchi G.**Rubruk** (vafoti 1253y.) nestorianlarning Mo'g'ulistonidagi hayotlari to'g'risida to'liq ma'lumotlar berib o'tgan.

XIV asrda katolik cherkovi targ'ibotchilari (missionerlari) Nestorian cherkovi tarafdrorlari bilan ham ma'naviy, ham jismoniy jang boshladilar. Bu janglar oqibatida **Pekin**, **Olmaliq** va **Samarqandda** katolik yeparxiyalari vujudga keldi.

Savdoning rivojlanishi vajidan Markaziy Osiyodagi xristianlikka turli xil sekta lar suqilib kira boshladilar. "Issiq-ko'l" ko'lining bir sohili yonida havoriy **Matfeyning** jasadini muqaddas hisoblovchi bir arman monastiri bo'lib, u o'sha yerdagi odamlarga xizmat qilgan.

XIV asrdagi islom va buddizmning Markaziy Osiyodagi muvaffaqiyatlari xuddi nestorianlar kabi boshqa xristian missionerlarining faoliyatiga chek qo'ydi. Xristianlik sekin-asta yo'qola boshladidi, xristian madaniyatining Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarning to'xtalishi sababli, o'zidan hech qanday iz qoldirmadi. Faqatgina qadimgi suriyalik ishlab chiqqan alifbo va uyg'urlardan mo'gul va naymanlarga o'tgan bir qancha madaniy so'zlar saqlanib qolingga.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бахрамхан Маҳдумзода «Неистовые несториане» Санкт-Петербург.: Издательство Шандал 2001
2. Краткий очерк по истории ташкентской и среднеазиатской епархии. 2 тема
3. (Ибн-Хаукаль) Viae et regna. Discription ditions moslemicae auctore Abu'l-Rfsim ibn Haukal



O'ZBEKISTONDA URUG'CHILIK JAMOASINING BRONZA DAVRI

*Buvayda tumanı 49- umumiyy o'rta ta'lif
maktabi tarix fani o'qituvchisi
Mullayeva Moxira*

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekistonda urug'chilik jamoasining bronza davriga oid malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, bronza davri, ruda, mis, qurollar, bezaklar.

Ўрта Осиёда бронза милоддан аввалги III минг йилликнинг охири ва II минг йилликнинг бошларидан маълум. Бронза даври "металлурглари" дастлаб металлни ер юзига чиқиб ётган рудадан олганлар, кейинроқ ер ости руда конларидан хам фойдаланганлар. қазиб олинган мис руда аввал очиқ гулханларда, сўнгра алоҳида печларда (сопол тигель) да еритилиб, ундан соф мис-металл ажратиб олинган ва уни қалайига қориштириб бронза олганлар. Бронза тош ва терракота қолипларига қўйилиб, ундан турли шаклларда қуроллар ва безаклар ясалган.

Бронзанинг кашф етилиши ибтидоий жамоа хўжалигида рўй берган буюк маданий-хўжалик ихтиро еди. Шу муносабат билан меҳнат қуролларининг тури кўпайди, ҳарбий қуролларнинг хили ва жанговарлиги ортди. Бронзадан ясалган уй-рўзгор буюмлари хам пайдо бўлди. Аммо бронза меҳнат қуроллари ишлаб чиқариш учун нодир ва камчил металл бўлиб қолаверди. У меҳнат қуроллари ясаща тош ҳомашёсини узил -кесил сиқиб чиқара олмади.

Бронзадан асосан турли безаклар, уй-рўзгор ва хўжалик буюмлари, ҳарбий қурол-аслахалар ва меҳнат қуроллари ясадиган маҳсус темирчилик чилангарлик ва заргарлик устахоналари вужудга келди. хунармандчиликнинг ихтисослашуви билан минтақалараро айрибошлиш кучайди. Вилоятларни иқтисодий жихатдан боғлаб турувчи табиий алоқа ёъллари пайдо бўлди. Масалан, Ўрта Осиё раёнларини Хитой билан боғлаб турган "ипак йули „ёки Бадахшон лаълисининг Яқин Шарқда ёилишини таъминлаган лазурит юлини еслаш мумкин. Алоқа бобида қуруклиқда транспорт сифатида хайвонлар (от, хўқиз, эшак тия) кучидан фойдаланиш бошланди. хайвонлар кўшилган фидирекли аравалар вужудга келди. Масалан, уларнинг лойдан ишланган намуналари бронза даври ёдгорликларидан кўплаб топилган.

Археолог олимларнинг Ўрта Осиё худудида олиб борган илмий изланишларининг натижаларига кўра бронза даврида ахолининг асосий хўжалиги чорвачилик ва дехқончилик бўлиб қолди.

Чорвачиликни биринчи бор аёллар кашф етган. Матриархал уруги жамоалари хукмронлик килган даврда хали ибтидоий аждодларимиз тўла-тўқис табиат кучлари олдида ожиз едилар, уларнинг кундалик хаёти овчилик ва термачиликдан келадиган даромадга боғлиқ еди. Ана шундай шароитда аёллар олдида еркаклар овдан олиб келган ов ўлжасини тежаб-тергаб сарфлаш вазифаси доимо кўндаланг бўлиб турарди. Ерлар хам ма вакт хам овдан ўлжа билан қайтавермас едилар. Хайвон ови йилнинг хар фаслида бўлгани сабабли овчилар овдан хайвон болаларини ўлдирмай тутиб келган холлар кўп бўлган. Шу боис матриархат уруғ жамоалари ихтиёрида ўзининг ёввойи табиати билан одамлардан чўчимайдиган, аёллар ва болаларга ергашадиган хайвон болалари пайдо бўлди. Бундай хайвонлар Ўрта Осиё шароитида аввал эчки, қўй ва қорамол бўлиб чиқди. Ов пайтида тириклайн кўлга кири-тилган ана шу хайвоннинг болаларини аёллар парвариш қила бошладилар. Шундай қилиб, жамоада уй хайвони пайдо бўлди, чорвачилик хўжалигида дастлабки қадам қўйилди. Овдан ўлжа билан қайтмаган еркаклар уй хайвонларини парвариш қилишда энди аёлларга ёрдам бера бошладилар. Аста-секин уй хайвонлари овга нисбатан хўжаликка нафи кўпроқ тегадиган ишончли даромад манбаига айланиб борди. Уй хайвонлари жамоани биргина гўшт маҳсулотлари билан емас, балки сут маҳсулотлари билан хам таъминлайдиган бўлди. Уй хайвонидан келадиган фойдани кўрган ибтидоий аждодларимиз хайвон парваришланашдан, чорвачилик каби янги хўжалик тармоғини ривожлантиришдан манфаатдор бўлиб қолдилар. Шундай қилиб материархат уруғ жамоаси даврида чорвачилик келиб чиқди. Унинг ихтиоричилари оналар бўлдилар



Дехқончиликнинг пайдо бўлишида хам аёллар асосий ролни ўйнаганлар. Эрлар овга кетганда улар келтирган ов ўлжаси-тирик хайвон болаларини боқиш ва уларга ем-хашак топиш, дастлаб аёллар зиммасида еди. Бутун тош даври давомида хукмронлик қилган табиий меҳнат тақсимоти аёллар зиммасига термачиликни, яъни ёввойи бошокли ўсимликларни йифиш, ёввойи дараҳт меваларини териш вазифасини юклади. Аёллар ёввойи бошокли ўсимликларни йифиб уруғ жамоаси маконига келтирас эканлар, уларни янчиш, тозалаш жараённида жамоа кулбалар атрофида беихтиёр тўқилган донлардан униб чиқсан нишоналарни кузатмаслик мумкин емас еди. Табиат мўъжизаларини кузатиш бобида тенги ёқ иқтидорга ега бўлган аждодларимиз аста-секин уруғ жамоалари кулбалари атрофида хамда ўзларига яқин-узоқда бўлган жойларда униб чиқаётган майсазорларни сезмаслиги мумкин емас еди. Шу боис дехқончиликка кўйилган биринчи қадам дастлаб жамоа кулбалари атрофида униб чиқсан дон екинларини авайлаб парвариш қилишдан бошланди. Бу ишни хам аёллар бошлаб бердилар. Дехқончиликдан келадиган даромад термачиликка нисбатан юз бор, минг бор унумли еди. Буни ибтидоий бобокалонларимиз жуда тез пайқаганлар. Шундай қилиб дехқончилик хўжалиги пайдо бўлди. Ўрта Осиёда бронза даври ибтидоий жамоа хўжалиги икки зона бўйлаб ривожланишда давом етди. Агар бу тарихий манзара ўзбекистон мисолида кўрилганда хам бронза даври жамоалари хаётида зоналараро ривожланиш кузатилади. Бу даврда, биринчи навбатда, суғорма дехқончилик базасида қад кўтарган доимий қишлоқарнинг кўпайиши, уларда яшаётган аҳоли сонининг тобора зичлашиб бориши ва янги ерларни интенсив ўзлаштириш жараёнининг кучайиши кузатилади. Янги ерларнинг ўзлаштирилиши билан боғлиқ холда қанчадан-қанча дехқончилик маданияти ўчоқари вужудга келди, ибтидоий хунармандчилик хўжалигининг турли соҳаларида янгидан-янги ихтиrolар қилинди. Масалан, бронза даврида металл билан ишлаш хунармандчилиги, заргарлик уй-жой қурилишида-ғиштдан фойдаланиш, кулолчиликда-чархдан фойдаланишга ўтиш уруғдошлик жамоасининг маданий-хўжалик соҳасидаги йирик кашфиётларидан хисобланади.

Археологик материалларнинг гувохлик беришича, Ўрта Осиёning жанубий дехқон жамоалари билан шимолий чорвадор қабилалари ўзаро иқтисодий ва қон-қриндошлик муносабатлари кенг ривожланган. Бирининг маданий-хўжалик ютуғидан иккинчиси фойдаланган. Бу икки зона ўртасидаги алоқалар ва етник муносабатларнинг давом этиши натижасида ибтидоий жамоа иқтисодиётининг асосини ташкил етган чорвачилик ва дехқончилик хўжалиги ва улар доирасида шаклланиб бораётган хунармандчилик янада ривож топган.

Бу воқеалар Ўрта Осиё халқарининг, аввало ўзбеклар ва тожикларнинг етногенетик тарихида юз берган биринчи йирик жараён еди.

Ибтидоий уруғчилик жамоалари заминида чорвачилик ва дехқончилик хўжаликлари таркиб топгач, жамоа ихтиёрида ортиқча даромад пайдо бўлди. Жамоада ортиқча истеъмол молларининг мавжудлиги уруғлар ва қабилалар ўртасида айрибошлашни келтириб чиқарди. Айрибошлаш ўз навбатида қабилалараро иқтисодий, маданий ва етник алоқаларнинг пайдо бўлишига асос солди.

Бронза даврига келиб дастлаб аёллар машғулоти бўлиб келган дехқончилик ва чорвачилик хўжаликлари билан шуғулланиш еркаклар қўлига ўтгач, енди аёллар уй-рўзғор ишлари фарзанд туғиши ва тарбиялаш юмушлари билан кўпроқ банд бўлиб, бир вақтнинг ўзида чорвачилик ва дехқончилик билан шуғулланишга вақт тополмай қолдилар.

Бу хўжалик ихтиrolари кўпроқ еркаклар меҳнатини талаб етар еди. Шу боисдан бўлса керак жамоада моддий бойлик яратувчи куч сифатида болалар олдида еркакларнинг роли тобора ортиб борди. Жамоада еркаклар мавқеининг ортиб бориши хисобига матриархат уруғ жамоаси негизига зил кетди.

Ана шундай шароитда жуфт оила ўзининг дастлабки босқичида аёллар хак-хуқуқлари асосида қурилган ижтимоий мазмун ва моҳиятини ёқотди. Жуфт оила енди ўзининг сўнгги босқичига, яъни оиласида еркаклар хукмрон бўла бошлаган босқичга кўтарилиди. Ендиликда жуфт оила матриархал уруғ жамоаси манфаати асосида емас, балки патриархал уруғ жамоаси иқтисодий негизи асосида қуриладиган бўлди. Оддий сўз билан айтганда, жамоани, унинг таркибида шаклланган оиласи бошқариш аёллар ихтиёридан еркаклар қўлига ўтди. Шундай қилиб патриархал яъни ота уруғи бошланди.

Ота уруғининг вужудга келиши уруғ жамоаси доирасидаги турли муносабатлар



мохиятини ўзгартириб юборди. Икки уруғ ўртасида бир неча минг йиллар давом этган гурухий никоҳ тизими бузилди. Жуфт оила ўз мазмуни билан моногомия (якка) оила даражасига кўтарилиди. Бунга кўра оиласида эрнинг хақ-хукуки мустахкамланди. Эркаклар чексиз хукуқ ва давлат эгаси сифатида оиласи бошқарди. Ибтидоий уруғчилик жамоаси иқтисодий негизида содир бўлган бу ўзгаришлар ўз навбатида уруғчилик жамоа тузумининг емирилишига, дастлабки синфий жамият асосларининг вужудга келишида хизмат қилди. Бундай инқилобий ўзгаришлар бронза даврида, айниқса унинг сўнгги босқичида юз берди. Ўрта Осиё, жумладан Ўзбекистон шароитида бу босқич тарихимизнинг археологик даврий тизимида милоддан аввалги II минг йилликнинг охири ва I минг йилликнинг бошларига тўғри келади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Аскаров А.А. Ўзбекистон халқлари тарихи. Тошкент.Фн. 1992.
2. Аскаров А.А. Сополлитепа. Тошкент 1993.
3. Аскаров А.А.,Абдллаев Б.А. Джаркутан. Тошкент 1989.
4. Исломов У. Фарғона водийсидаги биринчи қўйи палеолит даврига оид манзилгоҳ. ОНУ № 8. 1994.
5. Исломов У. Обишир маданияти. Тошкент . 1980.



TARIX DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING O'RNI VA AHAMIYATI.

*Yunusova Zaytuna
Buxoro shahar 24-maktab tarix
fani o'qituvchisi. +998905103698*

Annotatsiya: ushbu maqolada tarix darslarida qo'llaniladigan metodlar va ulardan darslarda foydalanish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: pedagog, Amir Temur, BBBmetodi, ko'nikma, malaka, tushunchalar metodi.

Har bir pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi pirovard natijaga erishish yo'llarini bandma-band aniqlash va unga so'zsiz erishishdan iborat. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga xamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalarga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtaida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobjiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrslay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlarini xulosa chiqara olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatları uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, mening fikrimizcha, ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining doimiy ravishda optimallashib borishi dars berish jarayonida qo'llanilayotgan yangi va takomillashib borayotgan pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalish va maqsadlarda qullan ilayotganligiga bog'liq.

Kelajak tarqqiyoti bugungi yosh avlodning aqliy tafakkuri, bilimi, tajribasi, kasbiy tayyorlarligiga bog'liqdir. Yoshlarni hayotda o'z o'rinalarini topishlari, o'z salohiyatlarini erkin namoyon eta olishlari va ularni ish bilan ta'minlash doimo davlatimiz va jamiyatimiz diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimida davom etayotgan islohotlarning eng muhim bosqichi tarix fani o'qituvchisi oldiga shunday ma'suliyat qo'yidiki, bu o'qituvchi faoliyatining o'quv-biluv tuzilmasini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishdan iborat.

Tarix darslari samaradorligini oshiruvchi usullardan biri ko'zgazmali vositalar yordamida darsda muaammoli vaziyatni vujudga keltirish bo'lib hisoblanadi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri – ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Buning uchun pedagogdan yuksak mahorat va ta'lim jarayonida yangicha yondashuvni talab etadi. Bugungi kundagi ta'lim jarayoni ta'limni interfaol metodlar asosida olib borishni talab etmoqda.

Xususan, taerix fanini o'qitishda olib boriladigan mashg'ulotlarda ham interfaol metodlardan foydalanish mumkin. Masalan: "Aqliy hujum", "Klaster", "Bingo", "BBB", "Marra tomon olg'a", "Tarixiy quvlashmachoq", "Xatolarni top", "Toza doska" va boshqa metodlardan foydalanish mumkin.

"B.B.B" texnologiyasi. (bilaman, bilmoxchiman, bilib oldim)

Masalan, o'quvchilar bilan Amur Temur mavzusini o'rganishda bu texnologiyadan quyidagicha foydalanamiz: O'quvchilar guruhlarga bo'linadi. O'qituvchi o'quvchilardan Amir Temur haqida nima bilasizlar deb so'raydi o'quvchilar javoblarini bilaman ustuniga yozib chiqadi. Ikkinchisi ustunga A. Temur haqida nimalarni bilishni hohlashini yozib chiqadi. Uchinchi ustunga o'quvchilar nimalarni bilib olganliklarini yozib chiqadilar.

"Tushunchalar" metodi:

Metodning maqsadi: mazkur metod o'quvchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

"Tarixiy quvlashmachoq". Doskaga 10ta kvadrat katakchalar chizilib 10ta sana tartibsiz ravishda joylashtiriladi. Berilgan vaqt davomida tarixiy sanalar ketma-ketligini to'g'ri hal qilgan o'quvchi g'olib hisoblanadi. Bu vazifa guruhlarga berilsa yanada samaraliroq bo'ladi. Chunki, guruhlar o'rtaida raqobat hissi yanada kuchayadi. Vaziyatni to'g'ri va to'liq topgan guruh g'olib sanaladi.



“Toza doska”. O’qituvchi doskaga savollarni tartibsiz yozib chiqadi. Savollar diagramma, kartadanrasm holida ham bo’lishi mumkin. O’qituvchisinfni kichik guruhlarga bo’ladi. O’qituvchi hozir o’qiydigan ma’ruzasida doskadagi barcha savollarga javoblar aytishini ma’lum qiladi. Guruhlarning vazifasi imkon qadar ko’proq savolning javobini topishdan iborat bo’ladi. Javobi topilgan savollar o’chiriladi. Qolib ketgan savol uygaga vazifa qilib belgilanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, o’quvchilarga tarix darslarida ularning tarixiy bilimlarga bo’lgan tafakkur tushunchalarini o’stirishda yakka tushunchalarni umumlashtirib, xulosalar chiqarishda mazkur ta’lim usullaridan keng va o’rinli foydalanish ularning tafakkurini shakllantirishda juda yaxshi samara beradi. Chunki, tarixiy ma’lumotlarni taqqoslab o’rganish ularni mantiqiy fikrlash, tarixiy voqealarning mohiyatini tushunish, o’sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotining sabablarini aniqlash ko’nikma va malakalarini takomillashtirish hamda ularning tarixiy tafakkurlarini shakllantirishda muhim o’rin tutadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Yo’ldoshev J, Usmonov S. “Pedagogik texnologiya asoslari” Toshkent – 2004
2. www.ziyonet.uz



TARBIYA MASALALARI – OGahiY QARASHLARIDA

*Qodirova Sunbula Akbaraliyevna
Toshkent viloyati Olmaliq shahar
kasb – hunar maktabi Tarix fani o'qituvchisi
Telefon: +998 94 402 11 00*

Annotatsiya: Berilgan ilmiy maqolada Ogahiyini tarbiya masalalari bo'yicha qisqacha ma'lumot berishga harakat qilingan, ya'ni ijodkorga berilgan ta'riflar va ijodkor tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: "Firdavs ul-iqbol", "Riyozud-davla", "Zubdatut tavorix", "Jomi'ul voqeoti Sultoniy", Oshiqlar tumori, "Shohidi iqbol".

Muhammad Rizo Ogahiy iste'dodli Shoir, salohiyatlari muarrix, mohir tarjimon, benazir mutafakkir, ko'p qirrali ijodkordir. Shu ma'noda A.Hojiahmedov "...Muhammad Rizo Ogahiy she'r ilmini mukammal egallagan va uni o'z asarlariga tatbiq etib, g'oyaviy va badiiy jihatdan betakror va bezavol obidalar yaratgan daho ijodkor edi", – deb yozadi. Ogahiy 1) original (lirik va epik), 2) tarjima (asosan sharq adabiyoti asarlari), 3) tarixnavislik yo'nalishlarida ijod olgan va o'ziga xos maktab yaratgan¹. Ogahiy, Munis Xorazmiyning "Firdavs ul-iqbol" kitobida bergen aniq ma'lumotlariga ko'ra, 1809-yil 17-dekabrda Qiyotda, Erniyozbek mirob oilasida dun-yoga kelgan. Hasanmurod Qori Laffasiyning ta'kidlashicha, Muhammad Rizo Ogahiy qiyotlik Erniyozbek mirobning o'g'li bo'lib, xonlar davrida Shermuhammad mirob Munis Xorazmiyining dastparvarda shogirdi va amakizodalaridan bo'lgan. Muhammad Rizo yoshligidan ilm-fanga havas qo'yadi, diniy va dunyoviy bilimlarni qunt bilan egallaydi. Lekin bu osuda bilim olish zavqi uzoq davom qilmadi, uning otasi vafot qiladi. Bu og'ir va qayg'uli damlarni xotirlab u yozadi: "Ammo hanuz ilm qavoldi choshnisidin kom va fazl qavonini lazzatidin bahrai tamom hosil qilmasdan burun jahon g'addorning gunogun jafosi va charxi kajraftorning rango-rang balosi sar vaqtimg'a etushti va ro'zgor anduhi shiddatining og'ir yuki tog' yanglig' boshim ustiga tushdi". Muhammad Rizo Ogahiyning ilmiy biografiyasini yaratishda uning asarlaridagi ma'lumotlar ni-hoyatda muhim va qimmatlidir. Muhammad Rizo Ogahiyning bir qator she'rlerida tarixiy solnomalarida hayoti va faoliyatiga oid qator ma'lumotlar borki, ular Shoir tarjimai holini to'ldirishga xizmat qiladi. Muhammad Rizo Ogahiy fors va arab tillarini ham mukammal o'rganadi. Tez orada iste'dodli ijodkor sifatida tanila boshlaydi. Olimlarning guvohlik berishicha, Muhammad Rizo Ogahiydan bizga boy ilmiy va adabiy meros (72 ta qo'lyozma) qolgan. U iste'dodli, yetuk Shoir sifatida "Ta'viz ul – oshiqlar" ("Oshiqlar tumori") devoniga tartib bergen bo'lsa, mohir tarjimon sifatida Sharq adabiyotining eng nodir asarlaridan 20 ga yaqinini o'zbek tiliga tarjima qilgan. A.Hojiahmedov yozganidek: "Fors tojik va turkiy she'riyatning ko'plab buyuk namoyandalari ijodini obdon o'rganib, ularning badiiy mahorat sirlarini atroflicha kashf etgan Shoir insoniy kechinmalarning eng nozik va murakkab qirralarini g'oyat ta'sirchan ifodalash, tilimiz xazinasi javohirlaridan purmazmun va nafis, serjilo va dilrabo lirik asarlar ijod etish san'atini puxta egallagan usta qalamkash edi". Ogahiy o'zining tarjimalarini quyidagicha eslaydi: Faqirning turki tili birla tarjima qilg'on kitoblari "Ravzatus safo"ning ikkinchi daftaridan Chahryori izom voqeasi va uchinchi daftari. Va "Nodirnama" va "Zafarnoma" va "Zubdatul – hikoyot"i va "Miftoh-ut-tolibin" va "Nasihat nomai Kaykovus", "Salomonu Absoli Jomiy", "Guliston Sa'diy", "Bahoristoni Jomiy" va "Ravzatus safo", "Nosiriy" ning bir daftari. Va "Daloilul xayrot Sharhiy" kim rum turkisidin chig'atoy tiliga o'tkarildi va tazkirai "Muqim xoni" va "Taboqati Akbar shohi" va "Haft paykari Nizomiy" va "Hasht bihishti" Xisravyi va "Yusuf Zulayhoyi" Jomiy, "Shohu gadoi" Hiloliy". Aytish mumkinki, Xorazmda tarjimonlik san'atini XIV asrda Sayfi Saroyi, Qutb Xorazmiy, Haydar Xorazmiylar boshlab bergen bo'lsa, XIX asr boshlarida uni Munis Xorazmiy davom qildirgan va Ogahiy yuksak pog'onaga ko'targan.

Tarixnavislikda tajriba orttirgan Muhammad Rizo Ogahiy Xorazm xonligi tarixiga oid 5 ta tarixiy asarlar yaratgan. Ular: Olloqulixon hukmronligini tasvirlovchi "Riyozud-davla"; Rahimqulixon saltanatiga oid "Zubdatut tavorix", Muhammad Aminxon davri voqealarini aks

¹ Ҳожиаҳмедов А. Огаҳий даҳосининг олмос қирралари. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999. – 4.6.



ettiruvchi "Jomi'ul voqeoti Sultoniy" Sayid Muhammad xonligi tarixiga oid "Gulshani davlat" va Muhammad Rahim II hukmronligi davrining dastlabki yillariga bag'ishlangan "Shohidi iqbol" dir. Mazkur tarixiy asarlarda o'lka hududida yashagan o'zbek, qoraqalpoq, turkman, qozoq xalqlarining hayoti, Xiva xonligining Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi, shuningdek, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Rossiya bilan bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari, Chor Rossiyasining Xiva xonligiga oid siyosiy maqsadlari aniq dalillar ochib berilgan. Ularda Xiva xonligi hududidagi xalqlarning madaniyati, urf-odatlari va turmush tarzlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar mavjuddir. Bizningcha, tarixnavisning yana bir muvaffaqiyati shundaki, tarixiy voqealar badiiy uslubda obrazli bayon qilingan, ba'zi voqealari she'riy parchalar bilan tasvirlangan. Bu esa asarlarning ta'sirchanligini oshirgan, tasvirlanayotgan voqealari keltirilgan faktik materialarning ko'pligi jihatidan Qo'qon va Buxoro xonliklari tarixiga doir bizgacha etib kelgan hamma asarlarni o'zidan ancha orqada qoldiradi". Uning dardu alamga to'la ichki dunyosini ochib berishga intiladi.

Xulosa qilib shuni qo'shimcha qilishimiz mumkinki, Ogahiy dunyoqarashining shakllanishida Alisher Navoiyning umuminsoniy ruh bilan sug'orilgan gumanistik ta'limoti g'oyaviy manba bo'lib xizmat qilgan. Borliq, jamiyat, inson va insonparvarlik, axloq, davlatni odilona va oqilona boshqarish masalasida Muhammad Rizo Ogahiy Navoiyga ergashgan, undan ilhomlangan. Y.Jumaboev mutafakkir dunyoqarashi haqida gapirib, undagi "eng muhim xususiyatlardan biri real insonga tiganmas muhabbat, jamiyat va oddiy xalq hayoti, real ijtimoiy jarayonlarga cheksiz qiziqishdir," deb ko'rsatadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdug'afurov A. Muhammad Rizo Ogahiy. – T.: Meros, 1999. – 62 b.
2. Ahmedov. B.A. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. Munis va Ogahiy. –T.: O'qituvchi, 1991, -216 b.



ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА "ХАЛҚ ҚАБУЛХОНАЛАРИ" ФАОЛИЯТИ

Умаров Авазбек Аълам Ўғли
Самарқанд Давлат музей-қўриқиҳонаси
Тасарруфидаги Мирзо Улугбек музей-
Мажмуаси мудири
Avazkhan_90@mail.ru
+998901002034

Аннотация. Темурийлар даврида амалга оширилган ишлар, сиёсий –маданий ҳаётдаги ўзгаришлар ва ўша даврда амалда бўлган қонун қоидалар ҳозирги кунга қадар нафақат бизнинг мамлакатимизда, балки бутун дунё ҳамжамияти томонидан ўрганилиб, таҳлил қилиниб келмоқда. Ушбу мақолада ҳам ҳозирги кунда мамлакатимиз худудларида фаолият юритиб келаётган халқ қабулхоналарининг тарихдаги ушбу соҳадаги давлат органлари фаолияти билан ўхшашлик жиҳатлари таҳлил этилиб, ушбу йўналишда юритаётган мамлакатимиз сиёсатининг нақадар оқилона ва тарихи тажрибаларга асосланганлиги ҳамда Буюк тарих эгалари Буюк келажак қуришда ишончли қадам босаётганлиги ҳақида сўз юритилган.

Калит сўзлар: халқ қабулхонаси, Темур тузуклари, Вазири Аъзам , арзбеги, девони куззот, девони адл

Ҳозирги кунда халқимиз орасида “портал” номи билан тилга олинаётган Ўзбекистон Республикаси Президентининг жойлардаги Халқ қабулхоналари ахоли ва ҳукумат ўртасидаги шаффоғ мулуқотни таъминловчи кўпrik вазифасини бажармоқда десак муболаға бўлмайди. Президентимизнинг “Халқ давлат идораларига эмас, давлат идораларихалқимизга хизмат қилиши керак “ деган ғояларининг шунчаки илгари суримаганлигини далили сифатида кўришимиз мумкин бўлга ушбу қабулхоналар Президентимизнинг 2016 йил 28 декабрдаги “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармонига мувофиқ ташкил этилган бўлиб, бу қабулхоналар орқали ахолининг кундалиқ ҳаётидан доимо хабардор бўлиб туриш, улар томонидан билдирилаётган мурожаат ва шикоятларни кечиктирмай кўриб чиқиш, бу борада турли расмиятчилик, бюракратия ҳамда менсимаслик ҳолатларига барҳам беришда муҳим асослардан бири сифатида хизмат қилиб келмоқда. Халқ билан биргаликда, халқнинг дардини эшитиб яшаш ва унга малҳам бўлиш мамлакатимиз сиёсатида тарихий анъана бўлиб, бунинг далили сифатида Темурийлар даврида ушбу ҳолат юзасидан амалга оширилган тадбирларни мисол қилиб олишимиз мумкин. Темурийлар даври маданий ва ижтимоий ҳаёти мамлакатимиз тарихини ўрганишдаги аҳамияти жуда катта. Чунки Амир Темур ва Мирзо Улугбек ҳукмронлик даврига назар солсак, ушбу давларда ҳам халқнинг турмуш-тарзи ва муаммолари, ҳукумат вакилларининг халқ билан ишлаш жараёнида келиб чиқаётган норозиликлар сабабини ўрганиш ва бартараф этиш мақсадида халқнинг фикри доимий эшитиб ўрганиб борилган.

Асосан давлатни идора қилиш ишларида Амир Темурга ёрдам берган вазирлар сони етти кишидан иборат бўлган. “**Темур тузуклари**” да вазирларнинг давлат тизимида тутган ўрни ҳакида гап кетар экан, бу масъулиятли давлат амалдорларининг вазифалари ва бурчлари белгилаб берилган. Вазирлар кимга бўйсунади, қандайишлар билан банд бўлади-буларнинг ҳаммаси бирма-бир “Вазирларнинг хизмат қилиш тузуги” бўлимида баён этилган. Уларга биринчи вазир – яъни Вазири Аъзам (Бош Вазир) раҳбарлик қилган. Вазири Аъзам фақат олий ҳукмдор олдида ҳисоб бериб, салтанатнинг муҳим ишларига мутасаддиллик қилган. Бундан ташқари, кундалиқ жорий ишларни амалга ошириш, хазина ва эл-юрт фаровонлигини таъминлаш ҳам юклатилган. Иккинчи вазир сипоҳга жавоб берган. Сипоҳнинг маоши ва лашкарбошиларга жангларда жасорат кўрсатгани учун берилувчи мукофот, вилоятлардан олинадиган фойданинг ҳисоб-китобини қилган, бу бойликлар ҳисобига лашкар боқилган. Энг муҳими –лашкарбошилар ҳарбий юришга кетганида уларга тегишли худудларни ҳам улар бошқариб турганлар. Учинчи Вазир эса эгасиз қолган ер-мулк ҳисобини юритган. Бундан ташқари, мамлакатга келиб-кетаётган савдогарлар молу-мулкидан олинадиган закот ва божни, мамлакат чорваси, ўтлоқ-яйловларни бошқариб



турган ва уларнинг ҳаммасидан тушувчи даромадни йиғиб, омонат тарзида сақлаб турган. Бундан ташқари, бу вазир эгасиз қолган, яъни эгаси қочиб кетган ёки нобуд бўлган молларнинг меросхўрларини топиб, уларга топширган.

Тўртинчи вазир –салтанат ишларини бошқарган, бутун салтанат идораларининг кирими-чиқимлари, хазинадан сарф қилинган харажатлар, ҳатто отхона ва саройдаги бошқа уй ҳайвонларини боқиши учун қилинган харажатлардан огоҳ бўлиб турган. Бешинчи вазир адлия вазири бўлиб, девони куззотга(қозилар девони) раҳбарлик қилган. Бу девон девони адл деб ҳам аталган. Олтинчи вазир девони мушрифга раҳбарлик қилган. Еттинчи вазир эса хорижий мамлакатлар билан бўладиган муносабатларга мутасаддилик қилган. Ана шундай вазирлар орасида **арзбеги** лавозимининг таъсис этилиши катта аҳамиятга эга бўлган. Чунки Амир Темурнинг улкан салтанатида оддий халқнинг арз-доди, шикоятига жиддий эътибор берилган. Шунинг учун ҳам бу давлат идораси ходимлари оддий халқ турмушини яхши билган ва халқ фаровонлигини оширишда нималарга кўпроқ эътибор бериш лозимлиги ҳақида Соҳибқиронга ахборот берилган. Бу ҳақда Амир Темур Тузукларида шундай ёзади: “Хукм қилдимки, бир кишини арзбеги қилиб тайинласинлар. У сипох, раият ва арз-дод қилиб (хўзуримга келувчиларнинг) аҳволини, мамлакатнинг обод-хароблигини, муҳим ишлардан қайси бири битган-битмаганлигини менинг арзимга етказиб турсин”. Амир Темур ҳар гал сафардан қайтганда Самарқанд аҳолисининг аҳволидан хабар олар ва маълум кунларда арзчиларни қабул қиласи эди. Бу қабул пайтида шаҳар ҳокими ва амалдорлар оддий халқка нисбатан қандай муомала қилаётганини билиб олар эди. Оддий дехқонлардан бир гурухи мироблар ишидан норози эдилар. Мироблар ариқларни тўсиб, ким пора берса, уларга сув очиб бераётган эдилар. Бу қинғирлик одам ўлдириш каби оғир жиноят билан тенг эди. Амир Темур бу оғир жиноятни кўриб чикар, холис кишиларни – сайдидларни чақирава улар иштироқида одил ҳукм чиқариб, айбдорни шу ерда жазолаб, Зарафшон дарёсига ташлаб юборишга фармон берар эди.

Айтишларича, Бир куни Мирзо Улуғбек хўзурига бир савдогар арз қилиб келади. Унинг айтишича, дарёда чўмилаётганида хамёнидаги икки қимматбаҳо тошнинг бирини йўқотиб қўйганлигини ва уни топишида ҳиммат кўрсатишини сўраб келган экан. Бу гапларни қунт билан тинглаган Улуғбек савдогарга бир йил кутиб туришини агар бир йилда муаммони ҳал этишни иложи топилмаса, зарарни ўзи тўлаб беришини айтиб савдогарга жавоб берил юборади. Шундан сўнг сарой аъёнларига бир охирги икки йиллик вақф хужжатларини олиб келишларини сўрайди. Хужжатларни ўрганиб чиқиш жараёнида бир дехқоннинг тўлаган солиги аввалги йилга нисбатан беш баравар кўплиги аниқланади ва Улуғбек ушбу ҳолатнинг сабабини билиш мақсадида дехқонни хузурига келтиришларини сўрайди. Дехқон олиб келиниб сўрок қилинганда эса аввалига дехқон бу йилги ҳосил яхши бўлганлигини шу сабабдан солиқ кўп тўланганлигини айтиб асл сабабни беркитишга ҳаракат қиласи. Аммо олиб борилган сўроқлар натижасида ҳақиқатдан ҳам ўша савдогарнинг қимматбаҳо тоши унда бўлганлигини ва уни сотиб ижарага кўпроқ ер олиб, ундан шунча кўп даромад олганлигини айтади. Унинг айтишича, ушбу қимматбаҳо тошни унинг ҳовлисига бир қуш ташлаб кетган экан. Шунда Мирзо Улуғбек дехқон тошни сотиб юборган одамни топиб келтириб тошни эгасига қайтариб олиб беради ва шу билан муаммо ҳал этилади.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки мамлакатимиз ривожланиш тарихини ўрганар эканмиз халқ билан ишлаш, бирга, ҳамнафас бўлиб яшаш нафақат ҳозирги замонимизнинг бурчи,балки бу тарихий ва бардавом ҳамда улуғ анъянмиз десак муболага бўлмайди. Зоро, тарихий меросни ўрганиш ва англаш ҳамда уни ҳаётга тадбиқ этиб янада юксалтириш Янги Ўзбекистонда-Янгича дунёқарашни шакллантиришимиз учун фундаментал асос бўлиб хизмат қиласи.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2016 йил 28 декабрдаги “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони. Манба Lex.uz
2. Э.Азимов “Амир Темур Салтанати”. Тошкент, Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1996 й.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(3-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000